

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

O`ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

*5141100 - o`zbek tili va adabiyoti bakalavr
ta`lim yo`nalishi bitiruvchisi*

Ibraximova Aziza Fayzullaevnaning

**« A.Qahhor asarlarida inson ruhiyatini aks ettiruvchi
leksemalarning ma`noviy- uslubiy xususiyatlari»**

mavzusidagi

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

NUKUS - 2014

Malakaviy bitiruv ishi O`zbek tilshunosligi kafedrasida yig`ilishining 2011-yil «___» _____dagi №__ bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.

Fakultet dekani: f.f.n., dots. G. Qurboniyozov

Kafedra mudiri: f.f.n. M. Xudayarova

Ilmiy rahbar: f.f.n., dots. G. Qurboniyozov

_____ning «_____»
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga Davlat attestatsiya komissiyasining
qarori bilan «___» ball («___%») qo`yildi.

«___» _____ 2014-yil

DAK kotibasi:

S. Bekchanova

Reja:

Kirish

Asoslama

I bob. Ruhiy holat ifodalovchi sifatlar semantikasi

- a) Xursandlik holatini ifodalovchi sifatlar;
- b) Xafalik holatini ifodalovchi sifatlar;
- c) G'azabli holatni ifodalovchi sifatlar;

II bob. A.Qahhorning til birliklaridan foydalanish mahorati

- 2.1. Ekspressivlikni ta'minlashda fonetik vositalarning o'rni..
- 2.2. Leksemalar nutq ta'sirchanligini ta'minlovchi vosita sifatida.

III bob. O'rta maktabda leksemalarning uslubiy xususiyatlarini o'rgatish usullari.

Leksemalarning uslubiy xususiyatlarini o'rgatishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

O'zbek tili morfologiyasida, boshqa so'z turkumlari qatori sifat ham katta o'rinni egallaydi.

O'zbek tilida belgi – sifat (качество) ma'nosini ifodalovchi maxsus (masalan, rus tilida sifat va ravishlardagi singari, hamma sifatlat uchun birdek qo'llana oluvchi) morfologik ko'rsatkich yo'q. Ba'zi bir so'zning ham ot, ham sifat, ham ravish vazifalarda qo'llana olishi ko'proq ana shuning uchundir. Lekin – li, -siz singari sifatning o'ziga xos yasovchi affikslari ham bor. Ammo bular ma'lum ma'noli sifatlarnigina yasaydi.

“Qart (qari) tipidagi so'zni dastlab sifat deb hisoblash mumkin, chunki u predmet belgisini bildiradi: sintaktik planda esa xuddi shu so'z: a) sifat tarzida ham; b) ot tarzida ham qo'llana oladi. Shunday qilib qart tipidagi so'zlarni semantik xarakteristika xususiyatlariga ko'ra, shartli ravishda sifat-ot atamasa bilan atasa bo'ladi.

Ot kategoriyasidagi so'zlar ham sifat (belgi ma'nosidagi aniqlovchi) vazifasida qo'llanadi va *qanday* degan so'roqqa javob bo'ladi. Masalan, *yog'och ot, sim to'siq, shoyi ko'ylak* kabi. Lekin bu so'zlarni ot kategoriyasidan sifat kategoriyasiga o'tdi deb hisoblamaslik lozim.

O'zbek tilida sifatlarning yasalishi juda keng va murakkab sohadir.

To'plangan faktik materiallar sifat yasovchi affikslarning yuzga yaqin ekanligini ko'rsatadi. Bu affikslar vositasida turli so'z turkumlaridan, mas., otdan (*iffatli, bahosiz, tungi, serpul*), fe'ldan (*so'zag'on, vaysaqi, sayratma*), taqlidiy, tasviriy so'zlardan (*jizzaki, sharaqlama*) va hokazolardan sifat yasaladi. Bulardan – li, -siz kabi yasovchilar faqat sifatga xos bo'lib, eng faol sifat yasovchilar hisoblanadi.

Sifat yasovchi affikslarni o'z tabiatlariga va turli-tuman xususiyatlariga (mas., sodda va qo'shma bo'lishi, faqat bir so'z turkumigagina xos bo'lib qolganligi yoki turli so'z turkumlari orasida teng qo'llana olishi, o'zakka turlicha ta'sir ko'rsatishi, qo'llanishda faol yoki nafaolliigi, fonetik variantlarga egaligi, sinonimik, antonimik xususiyatlari va shu kabi turli tomonlariga) ko'ra, bir necha guruh va guruhchalarga ajratish mumkin.

Ba'zi bir so'zlar (sifatlar) tub holda ham, affiks olgan holda ham (mas., *pok//pokiza, binoyi//binoyiday*) bir ma'noni anglataverishi bilan xarakterlidir.

Be-, -siz, no-, -li, ba-, -dor, ser- kabi affikslar qo'llanishi jihatidan sinonimik xarakterga ega: *puldor//serpul, betinch//notinch//tinchsiz, beo'rin//noo'rin//o'rinsiz*. Lekin shunga qaramay, affikslarning qo'llanishida farqlanib, chegaralanib qolgan, bir-biri bilan o'rin almashtira olmaydiganlari ham bor. Mas., *adab* so'zi be-, -siz bo'lishsizlik affikslarini oladi-yu, no-bo'lishsizlik affiksini qabul qilmaydi. *Pand* so'zi esa faqat be- affiksini oladi.

O'zak va affiks ba'zan yaxlit, ajralmas holatga kelib qoladi, ayrim hollarda esa yasalgan (yasama) so'zlarning ma'nosi o'zak ma'nosidan birmuncha uzoqlashadi yoki ma'lum darajada yangi ma'no kasb etadi. Mas., *yapasqi, shallaqi, beso'naqay, bejirim* va sh.k.

Sifat yasovchilar (yasama sifatlar)ga tuzilishi tomondan yondoshilib tahlil etiladi. Masalan: 1. Sodda sifatlar (tub, yasama). Bunda affiksatsiya usuli bilan yasalgan sifatlar beriladi. 2. Murakkab sifatlar. Bunda esa sintaktik usul bilan yasalgan (qo'shma, birikmali, tizma) sifatlar beriladi.

O'zaklarning qaysi so'z turkumidan ekanligi, yasalgan sifatlarning leksik-semantik, grammatik, stilistik tomondan keng turda va majoziy ma'no xususiyatlari, adabiy, dialektal, tarixiy variantlari, turkiy tillardagi qiyosiy ekvivalentlarini batafsil yoritish kabi mavzularni o'rganish tilshunoslikning oldida turgan vazifalardandir.

Sifatlarning eng xarakterli ma'no turlaridan "rang-tus bildiruvchi sifatlar" otlashishga juda moyil. Ulardagi bu otlashish xususiyati, ayniqsa semantik rang-baranglikni va ko'chma ma'nolarni yuzaga keltiradi.

Bulardan tashqari, rang-tus bildiruvchi sifatlarning darajalanish xususiyatlarida ham alohidalik mavjud. Ulardagi muhim tomonlardan yana biri, frazeologik iboralar, maqol-matal, qo'shiq, topishmoq, aforizmlar tarkibida juda ko'p qo'llanishidadir. Masalan, M.Ismoiliyning "Farg'ona tong otguncha" romanida birgina **qora** so'zi 163 yerda qayd etilgan. Rang-tus bildiruvchi sifatlar

laqab, haqorat so'zlari, qarg'ish-koyish iboralarida va hazil-mutoyibalarda ham ko'p uchraydi.

Sifatlarning xarakterli xususiyatlarini tilshunoslik nuqtai nazaridan atroflicha tahlil va tadqiq etish ham nazariy, ham amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Sifat o'zbek tilida o'zining leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra mustaqil so'z turkumi sifatida alratilgan. Sifat turkumining ko'p sohalari ustida dissertatsiyalar yoqlandi, ilmiy maqolalar yozildi.

O'zbek tili lug'at boyligining katta qismini tashkil etuvchi sifat so'z turkumining o'ziga xos xususiyatlari, turlari o'rta ta'lim maktablarida ham, oliy ta'limda ham o'qitiladi. Biroq o'zbek tilshunosligida belgi tushunchasini tashuvchi so'zlarning mukammal tadqiq etilmaganligi bois ushbu mavzuni o'quvchilarga tushuntirishda o'qituvchi ba'zi qiyinchiliklarga duch keladi.

Ma'lumki, sifatlarning ma'no jihatidan 9 turi farqlanadi: xarakter-xususiyat, holat, rang-tus, shakl-ko'rinish, hajm-masofa, maza-ta'm, hid bildiruvchi hamda o'rin va paytga munosabat bildiruvchi sifatlar. Mazkur sifatlar predmetlarning ichki va tashqi belgilarini, shakliy farqini ifoda etadi.¹

Ma'lumki, tabiat va jamiyatda sodir bo'layotgan har xil o'zgarishlar, hayotdagi turli xil insoniy munosabatlar kishi xarakteriga, uning ruhiyatiga ta'sir etmay qolmaydi. Ana shu tashqi ta'sir kishi ruhiyatida har xil holatlarning vujudga kelishi uchun zamin hozirlaydi. Inson ruhiyati juda serqirra bo'lib, u shodlik, g'azab, xafalik, loqaydlik kabi turli holatlar majmui sanaladi. Shundan kelib chiqib, tilimizdagi ruhiy holat ifodalovchi sifat leksemalarni bir qator turlarga ajratish mumkin:

1. Xursandlik holatini ifodalovchi sifatlar kishi ruhiyatidagi oniy lahzalarni, muayyan bir harakat yoki holatdan mamnunlikni turli shakllarda aks ettiradi. Bunday sifatlarning barchasi semantik jihatdan bir nuqtaga, leksik-semantik guruhga birlashadi: *xursand*, *mamnun*, *xushhol*, *xushnud*, *xurram*, *quvnoq*, *shodmon*, *shod*, *xushchaqchaq*, *masrur* kabilar. Xursandlik ifodalovchi bunday

¹ Mamarajabova Z. Ko'rinish sifatlarning grammatik xususiyatlari. Til va adabiyot ta'limi, 2002 y 2-son

sifat leksemalar orasida xursand uslubiy jihatdan betaraf bo'lib, dominant leksema hisoblanadi. Bu so'z og'zaki va yozma nutqda, adabiy tilning turli vazifaviy uslublarida keng qo'llaniladi. Shuningdek, to'plangan misollar , *xushhol*, *xushnud*, *xurram*, *quvnoq*, *shodmon*, *shod*, *xushchaqchaq* kabi ko'pgina sifat leksemalarning xursandlik ruhiy holatini turli darajada ifodalashga xizmat qilishini ko'rsatadi (Barcha **xushnud**, dillar **chog'** edi. (E.V.). **Shod** va **xurram** so'zlarining yonmayon kelishi ma'noni yana ham kuchaytirishga xizmat qiladi. **Shod** so'ziga nisbatan **quvnoq** so'zida ijobiy holat semasi ancha kuchli: **quvnoq** so'zining ma'no ko'lamini xursandlikni ifodalovchi boshqa sifat leksemalarga nisbatan ancha kengdir.

Misollar Odil Yoqubovning "Diyonat" romanidan tanlandi:

Xursand: *Judayam xursandman. (43-b.) Ikkinchidan Polikarnov domlaga xursand bo'lib gapirdi, katta yordam va'da qildi. (49-b.) Bu gaplardan qat'iy nazar, u xotinni chaqirib gaplashinglar, xursand qilinglar.*

2. Xafalik holatini ifodalovchi sifat leksemalar ham tilimizda keng tarqalgan: *g'amgin*, *dilgir*, *xafa*, *xomush*, *ma'yus*, *giryon*, *xunibiyron*, *diltang* kabilar. Bunday leksik-semantik guruhlar tarkibiga kiruvchi leksemalarning qo'llanishida farqli holatlar ham ko'zga tashlanadi. Jumladan, **xafa**, **ga'mgin**, **xomush**, **dilgir** kabi sifat leksemalarning belgini ifodalash darajasi bir xil bo'lsa, **g'amgin**, **xomush** so'zlari kishining yuz-ko'zidan ifodalanib turadigan g'amginlik holatini bildirishga xizmat qiladi, **g'ash** leksemasi esa insonning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari bilan bog'liq holatni aks ettiradi. Shu leksik-semantik guruh tarkibiga kiruvchi **ma'yus** so'zida belgi darajasi ancha kuchli bo'lib, u insonning umidsizlikka tushgan, tushkun holatini ifodalaydi:

Hasharchi qo'shni qiz uning sevgani,

Ma'yus bosar edi orqamdan odim. (G'.G'.)

Diltang leksemasi insonning xafalik holati juda kuchli darajada ekanligini, yuragi siqilgan holatini bildiradi:

Jo'nar bo'ldim men bundan *diltang*,

Yo'llaringa qarab qolding sen. (A.O.)

Xafa: *Otaqo'zi to'ydanda so'z ochgani uchun o'zidan ham xafa bo'lib ketdi.*
(18-b.) –*Siz xafa bo'lmang, otaxon,-dedi u qo'l qovushtirib.* (298-b.)

G'azabli: *Otaqo'zi yuragining tagidan daf'atan vulqonday qaynab kelgan g'azabni zo'r-bazo'r to'xtatib qoldi.* (20-b.) *Zum o'tmay bu g'azab, tog'asiga qarshi dilida jo'sh urgan bu isyon, qandaydir alamli bir tuyg'u bilan almashdi-yu, uzoq mum tishlab qoldi.* (20-b.)

Shunday qilib, sifat leksemalar o'z semantik tabiatidan kelib chiqib, kishining turli ruhiy holatini ifodalashga xizmat qiladi hamda bunday sifatlar alohida leksik-semantik guruhlar qatorini tashkil etadi. Ular badiiy nutqda tasvirlanayotgan kishining turli xil kayfiyatini (shodligini, quvonchini, g'am-alamini), ichki kechinmalarini, ruhiy iztiroblarini aks ettirish va shu orqali kitobxonda ham turli xil emotsiyalarni hosil qilishda muhim uslubiy vositalardan biri sanaladi.

Uslubiy qo'llanishiga ko'ra o'zining siqirligi bilan ajralib turuvchi sintetik shaklli sifat darajalari she'riyatda qo'llansa, analitik shaklli sifatlar esa publitsistik, ilmiy nutq uslublarida ishlatiladi.

Badiiy tasvirda daraja ko'rsatkichli va modal formali sifatlarni bir-biri bilan uyg'unlashtirib qo'llash yorqin manzaralar, ajoyib portretlar yaratish imkonini beradi: *Usta qarigina, burni cho'tirroq, ammo juda so'zamol, mahmadana kishi edi.* (O.)

Kishi ruhiyati nihoyatda serqirra va turfa bo'lib, u o'zida xursandlik, darg'azablik, xafalik, loqaydlik kabi har xil holatlarni mujassamlashtiradi. Shundan kelib chiqib, tilimizda bu holatlarni ifodalovchi leksemalarga ehtiyoj tug'iladi. Natijada *xushhol, xushnud, xurram, quvnoq, shodmon, shod, xushchaqchaq, g'amgin, dilgir, xafa, xomush, ma'yus, giryon, xunibiyron, diltang, g'azabnok, kinli, darg'azab, g'azabli, sog', sergak, hushyor, lol, mudroq, loqayd* kabi leksemalarni nutqimizda qo'llaymiz. Bu leksemalarni birlashtiruvchi guruh holat bildiruvchi sifatlar guruhi deb ataladi. Tilimizdagi ruhiy holat ifodalovchi sifatlar bir qator turlarga ajraladi:

- d) Xursandlik holatini ifodalovchi sifatlar;
- e) Xafalik holatini ifodalovchi sifatlar;

f) G'azabli holatni ifodalovchi sifatlar;

Bu sifatlar so'zlashuv nutqida ham, badiiy nutqda ham tengdek qo'llanib, tasvirlanayotgan kishining turli xil kayfiyatini, ichki kechinmalarini, ruhiy iztiroblarini aks ettirish orqali kitobxonda va tinglovchida turli xil emotsiyalarni hosil qiladi. Ushbu sifatlar keng uslubiy imkoniyatga ega leksema sifatida badiiy asarlarda semantik-stilistik vosita o'laroq faol qo'llanadi. Ruhiy holatni ifodalovchi sifatlarini nutqda qo'llash orqali uslubiy ta'sirchanlik ortadi, badiiy tasvirda ifodaviylik ta'minlanadi.

Ma'lumki, izlanishga asoslangan har qanday faoliyat sarmahsul faoliyatdir. O'quvchi ona tili materiallarini tayyor holda o'zlashtirmay, uni izlasa, faol ijodiy faoliyat ko'rsatsa, o'zlashtirish jarayoni ancha samarali bo'ladi. Muammoli ta'lim ana shunday izlanish va ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Bu metod shaxs va uning intellektual aktivligini har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Bizning vazifamiz ona tilimizning go'zal, jozibador jumalari orqali ona tili ta'limining davr talabi, zamonaviy o'qitish usullari bilan birgalikda olib borib, o'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishdan iboratdir.

O'quvchilarni badiiy matn ustida ishlashga o'rgatish ularda adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirish va o'stirish orqali tarbiya berishni nazarda tutadi. Badiiy asar tahlili yozuvchining o'sha asarni yaratish jarayonidagi ijodiy yo'lini qayta bosib o'tish, muallif fikrlari, hissiyoti va xulosalariga sherik bo'lish, ayni paytda uning yutuqlaridan ruhlanish, kamchiliklariga tanqidiy munosabat bildirishdir. Adabiy tahlil o'qituvchidan o'quvchilar faoliyatini uyushtirish, bilimlarini boyitish va ma'lum maqsadga yo'naltirishda ijodkorlik, pedagogik mahorat, fidoyilik talab etadi. U ijodiy faoliyat bo'lgani uchun sovuqqonlikni ko'tarmaydi.

“Maktabda badiiy asarni tahlil qilishdan maqsad,-deb yozadi A.Zunnunov,- asarda ifodalangan hayotiy voqeani yoritish orqali o'quvchilarni badiiy adabiyot

olamiga olib kirish, tasvirlanayotgan voqealarga nisbatan muallifning munosabati va niyatlarini payqab olishga imkoniyat yaratishdan iboratdir. O'quvchilarning yozuvchi oldinga surgan g'oya, muammolarni to'la tushunishlariga erishmay turib, adabiyotning yoshlarni tarbiyalashdagi vazifasini amalga oshirib bo'lmaydi".²

Tahlil asarni nafaqat tushunish, balki o'zlashtirish orqali ma'naviy-axloqiy barkamollikka erishishga qaratilgan faoliyatdir. Adabiy tahlilning bosh masalasi matn ustida ishlash orqali o'tkaziladigan tahlildir. Uni ba'zi olimlar, masalan, Z.V.Rez va Zunnunovlar badiiy asarni o'zlashtirishning asosi deb bilsalar, ayrim olimlar, masalan, M.Mirqosimova, adabiy matnning badiiy xususiyatlarini o'rganish usuli degan fikrni ilgari suradi.

O'quvchi mutolaa chog'ida asar mazmuni bilan tanishsa, tahlil paytida poetikasiga murojaat qiladi. Mutolaa hissiyotni boyitib, aqlni peshlasa, tahlil matn tag zaminidagi ma'noni chuqur o'rganishga yordam beradi.

O'quvchi tahlil vositasida konkret asarni o'rganibgina qolmasdan, adabiyotshunoslik, mantiq, tilshunoslik, didaktika, san'at, falsafa kabi turli sohalarining badiiy ijodga bog'liq qonuniyatlari bilan ham tanishadi. Bunga erishishda o'qituvchining quyidagi masalalarni hal etishi nazarda tutiladi:

1. Tahlilning mazmuni va maqsadini aniqlash.
2. Ishni tashkil qilish (asar tahlilining darslar bo'yicha taqsimoti, topshiriqlar tizimini ishlab chiqish).
3. Matnning qanday metodlar asosida o'rganilishini, o'quvchilar egallaydigan malakalar doirasini belgilash.

Adabiy talim oldidagi yosh avlodni ma'naviy-axloqiy barkamol kishilar qilib tarbiyalashdek murakkab va mas'uliyatli vazifaning yukasak darajada hal etilishi ko'p jihatdan o'quvchilarda ana shunday adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirishga bog'liq. Bunda badiiy asar, adabiy-nazariy tushunchalar, o'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilimi, shaxsiy faoliyati, o'qituvchi mahorati asosiy omillardir.

² Zunnunov A. va boshqalar. Adabiyot o'qitish metodikasi. T.: O'qituvchi. 1992

O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish badiiy matn ustida ishlashning turli shakl va metodlardan foydalanishni shart qilib qo'yadi. Masalan, ilk tahliliy ko'nikmalar boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida matn mazmuni yuzasidan savol-javob asosida, shuningdek, to'liq, qisqartirib, ijodiy va shaxsni o'zgartirib hikoyalash vositasida hosil qilinadi. Natijada, o'quvchilar matn zaminidagi yetakchi ma'noni aniqlash, nafosatni his etish malakasini egallaydilar. Yuqori va o'rta sinflarda esa matn ustida ishlashda insho, referat, bayon, taqriz, ma'ruza matnini tayyorlash kabi ish turlari keng qo'llaniladi. Muayyan mavzu yuzasidan o'tkaziladigan bunday mustaqil ishlar o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi, nutqini boyitadi, shaxsiyatini tarbiyalashga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda tahlil markaziga bolalar uchun maxsus yaratilgan she'r, topishmoq, hikoya va masallar qo'yilsa, o'rta va yuqori sinflarda adabiy merosimiz xazinasida katta o'rin tutadigan butun boshli doston, drama, romanlar qo'yiladi. Bu esa adabiy tahlil malakasini bosqichma-bosqich izchil shakllantirishni taqozo etadi.

Badiiy matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirish shunchaki bilim berish vositasi emas, balki adabiy ta'lim oldidagi ta'lim va tarbiya uyg'unligiga qaratilgan eng dolzarb masaladir.

Shunga erishish kerakki, adabiy-estetik tahlil o'quvchining bilimini boyitsin, hissiyotiga cheksiz ta'sir ko'rsatsin, aqlini charxlab, dunyoqarashini kengaytirsin, nutqini o'stirsin. Buning uchun o'qituvchi adabiy-estetik tahlil bilan bog'liq vazifa va topshiriqlarning o'quvchilar tomonidan aniq va to'la tushunilishiga erishishi, beriladigan bilimlar izchilligi, bilimlarning ular yoshiga mos bo'lishini hamish diqqat markazida tutishi lozim. Adabiy asarni o'qish matn ustida ishlashning muhim bosqichidir. Badiiy asarlar janr xususiyatlari va dastur talablariga ko'ra sinfda o'qituvchi nazorati ostida, uyda mustaqil tarzda o'qiladi. Sinfda ovoz chiqarib, ovoz chiqarmay, jo'r bo'lib, rollarga bo'lib, sharxli, ifodali, adabiy-badiiy o'qish usullarida mutolaa qilanadi.

Badiiy asarni o'qishning mazkur turlari undagi har bir so'z, ibora va jumlaning qiroat bilan, to'g'ri, ravon o'qishgina emas, balki matnning umumiy ruhiga kirib,

tushunib o'qishni ham anglatadi, asarning janriy xususiyatlaridan tashqari, o'ziga xos ichki tuzilishi va ruhiyatini hisobga olishni taqozo etadi. Bunga erishish uchun o'quvchilarni matn ustida jiddiy ishlashga o'rgatish zarur.¹

Ma'lumki, tildagi har bir so'z boshqa so'zlarga nisbatan alohida, mustaqil birlik sifatida namoyon bo'ladi. Tilning lug'at boyligini sistema sifatida o'rganish esa so'zni alohida birlik emas, balki butunning tarkibiy, o'zaro bog'liq, ajralmas birligi sifatida o'rganishni taqozo etadi. Til leksikasini bunday tadqiq etishga bunday yondoshish 1895 yili akademik M.M.Pokrovskiy tomonidan taklif etilgan edi. Olim o'z doktorlik dissertatsiyasida "Muayyan so'zning ma'nolari tarixi uni yondosh, ma'nodosh so'zlar bilan o'zaro muvofiqlikda o'rgangandagina aniqlanadi," – degan edi.¹

Tilning lug'aviy boyligini sistema sifatida o'rganishda I.Trir va L.Veysbergerlar tomonidan ishlab chiqilgan "semantik, leksik maydon nazariyasi" muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Semasiologik izlanishlarda so'zlar muayyan leksik-semantik guruhlariga ajratiladi. Bunda so'zning ma'nosi bilan bir qatorda, ularning struktural-etimologik xususiyatlari, boshqa so'zlar bilan birikuvchanlik imkoniyatlari ham hisobga olinadi.

Har bir leksik-semantik guruh tarkibiga kiruvchi so'zlar bir markaziy (yadro) so'z atrofiga birlashadi. Boshqa so'zlarda esa ana shu markaziy (dominant) so'z ma'nosi yanada konkretlashadi. Uning differentsial va integral semalariga aniqliklar kiritiladi. O'zbek tilida so'zlarni ana shunday komponent (uzviy) tahlil qilishga Sh. Rahmatullayev, I.Qo'chqortoyev, R.Yunusov, I.Abdurahmonov kabi olimlar munosib hissa qo'shganlar. Ammo H.Ne'matov va R.Rasulovlar to'g'ri ta'kidlaganlaridek, o'zbek tili leksemalarining mazmun guruhlarini sistem usulda yetarlicha o'rganilmagan.

O'zbek tili lug'at boyligining katta qismini tashkil etuvchi sifat so'z turkumining o'ziga xos xususiyatlari, turlari o'rta ta'lim maktablarida ham, oliy ta'limda ham o'qitiladi. Biroq o'zbek tilshunosligida belgi tushunchasini tashuvchi

¹ Matchon Safo. Badiiy asar matni ustida ishlash. Til va adabiyot ta'limi. 2002 yil, 2-son
1 Покровский М.М. избранные работы по языкознанию. М., 1957. с. 75

so'zlarning mukammal tadqiq etilmaganligi bois ushbu mavzuni o'quvchilarga tushuntirishda o'qituvchi ba'zi qiyinchiliklarga duch keladi.

Ma'lumki, sifatlarning ma'no jihatidan 9 turi farqlanadi: xarakter-xususiyat, holat, rang-tus, shakl-ko'rinish, hajm-masofa, maza-ta'm, hid bildiruvchi hamda o'rin va paytga munosabat bildiruvchi sifatlari. Mazkur sifatlari predmetlarning ichki va tashqi belgilarini, shakliy farqini ifoda etadi.¹

Ma'lumki, tabiat va jamiyatda sodir bo'layotgan har xil o'zgarishlar, hayotdagi turli xil insoniy munosabatlar kishi xarakteriga, uning ruhiyatiga ta'sir etmay qolmaydi. Ana shu tashqi ta'sir kishi ruhiyatida har xil holatlarning vujudga kelishi uchun zamin hozirlaydi. Inson ruhiyati juda serqirra bo'lib, u shodlik, g'azab, xafalik, loqaydlik kabi turli holatlar majmui sanaladi. Shundan kelib chiqib, tilimizdagi ruhiy holat ifodalovchi sifat leksemalarni bir qator turlarga ajratish mumkin:

1. Xursandlik holatini ifodalovchi sifatlari kishi ruhiyatidagi oniy lahzalarni, muayyan bir harakat yoki holatdan mamnunlikni turli shakllarda aks ettiradi. Bunday sifatlarning barchasi semantik jihatdan bir nuqtaga, leksik-semantik guruhga birlashadi: *xursand*, *mamnun*, *xushhol*, *xushnud*, *xurram*, *quvnoq*, *shodmon*, *shod*, *xushchaqchaq*, *masrur* kabilar. Xursandlik ifodalovchi bunday sifat leksemalar orasida xursand uslubiy jihatdan betaraf bo'lib, dominant leksema hisoblanadi. Bu so'z og'zaki va yozma nutqda, adabiy tilning turli vazifaviy uslublarida keng qo'llaniladi. Shuningdek, to'plangan misollar , *xushhol*, *xushnud*, *xurram*, *quvnoq*, *shodmon*, *shod*, *xushchaqchaq* kabi ko'pgina sifat leksemalarning xursandlik ruhiy holatini turli darajada ifodalashga xizmat qilishini ko'rsatadi (Barcha **xushnud**, dillar **chog'** edi. (E.V.). **Shod** va **xurram** so'zlarining yonma-yon kelishi ma'noni yana ham kuchaytirishga xizmat qiladi. **Shod** so'ziga nisbatan **quvnoq** so'zida ijobiy holat semasi ancha kuchli: **quvnoq** so'zining ma'no ko'lamini xursandlikni ifodalovchi boshqa sifat leksemalarga nisbatan ancha kengdir.

Misollar Odil Yoqubovning "Diyonat" romanidan tanlandi:

¹ Mamarajabova Z. Ko'rinish sifatlari grammatik xususiyatlari. Til va adabiyot ta'limi, 2002 y 2-son

Xursand: *Judayam xursandman. (43-b.) Ikkinchidan Polikarnov domlaga xursand bo'lib gapirdi, katta yordam va'da qildi. (49-b.) Bu gaplardan qat'iy nazar, u xotinni chaqirib gaplashinglar, xursand qilinglar.*

Mamnun: *Uning aytishicha, otasi bu ajoyib oila bilan yaqinlashayotganidan benihoya mamnun emish. (37-b.) U hozir o'zidan ham, kuyoviga aytgan gaplaridan ham, hammasidan mamnun, chunkibugungi suhbat kuyovida yaxshi taassurot qoldirganini sezardi. (51-b.) Ha, Vohid Mirobidov hayotdan mamnun bo'lsa arziydi. Otaqo'zi o'g'lidan mamnun edi. (72-b.) Bugun Otaqo'zi nihoyatda mamnun. (184-b.) Ha, ota yanglishmagan – bu odamlarning hammasi tog'a-jiyanlarining gaplashib qolganidan mamnun. (277-b.)*

Quvnoq: *Mohiraning ovozi dadasining ovozidan quvnoqroq edi. (35-b.) Bu quvnoq qahqaha Shukurovga yana domla Shomurodovning uyida bo'lib o'tgan gaplarni eslatdi. Agar u sal shaddod, sal sho'xroq, sal quvnoqroq bo'lsa, Haydar sevinar edi. (52-b.) Abror Shukurovich xotinining xiyol erka va qandaydir juda quvnoq ovozini eshitib ajablanadi. (249-b.)*

Xurram: *Shundoq deraza yonidagi tut shoxlarida ikkita qizcha arg'imchoq uchmoqda, ular ko'ylaklarining etaklarini hilpiratib, goh uchuinchi qavat balkonigacha ko'tarilar, goh xurram qiyqiriq bilan pastga otilar, yerda, ariq bo'yida esa o'n uch-o'n to'rt yashar bir o'spirin hayrat to'la ko'zlarini qizchalardan uzolmay tamshanib turardi. (33-b.) Uning xayolini Otaqo'zining: - Tohir!-deb qichqirgan xurram ovozi bo'ldi. (35-b.) “U odam nima yomonlik qildi sizga”-deb so'ramoqchi bo'ldi, biroq shu payt oshxona tomonda ona-bolaning xurram qahqahasi yangradi. (45-b.) Ularning g'amgin ruhiyasi bilan hozirgina yangragan xurram qahqaha o'rtasida, qaynotasining mamnun ko'rinishi, umuman bu serfayz, serzavq baxtiyor o'rtasida qandaydir...pinhoniylar adolatsizliklardan dalolat beruvchi katta bir tafovut bor edi. (45-b.)*

Xushnud: *Ikkovi ham xushnud, bir-biriga xushmuomala edilar. (31-b.) Rost, ular Haydarni bu xushnud ishdan ozod qilishdi, dokladingni yana bir ko'rib chiq, deb ichkariga qamab qo'yishdi. (34-b.) Vohid Mirobidov...xushnud jilmaydi: - Kechirasiz, rais. (35-b.) Shukurov qaynota-qaynonasi ko'targan xushnud shovqin-*

suron ostida kulimsirab hovliga kirdi. (42-b.) Katta ziyofat hidini sezgan xushnud izdihom, betinim kulgu ostida kafega yaqinlashganda, ichkaridan ...Jamol Bo'riboyevning rafiqasi chiqdi. (54-b.) Sochlarining oqligi va sal to'lisha boshlagani bo'lmasa, burungiday basavlat, oppoq yuzlari sip-silliq, burunguday xushnud, burungiday bekamu-ko'st kiyingan Bo'riyev avval Otaqo'zi bilan, so'ngra qizlar bilan qo'l berib ko'rishdi. (64-b.) Haydar xushnud kayfiyatda Qodirjonni chetga chaqirib, Latofatning gaplarini unga aytdi. (198-b.) Xoy, ...Mo'ylov: "Gapingizga endi tushundim" deganday xushnud jilmaydi. (245-b.) Otaqo'zi bu gaplarni kutmagani uchunmi yo nihoyatda xushnud bir kayfiyatda kirib kelgani uchunmi, xo'plagan mastavasi tomog'iga tiqilib bir zum sarosima og'ushida qoldi. (227-b.)

Xushchaqchaq: *Jiyanining gapi to'g'ri bo'lsa to'g'ridir, biroq u Vohid Mirobidovni o'ylaganda, og'zi to'la tilla tishlarini doim yarqiratib, doim kulib turadigan bu xushchaqchaq, xushsurat, baxtiyor odamni o'ylaganda, urushdan oldin gazetada bosilib chiqqan, to'g'rirog'i, bu maqolaning yirik harflar bilan terilgan sarlavhasi "lop" etib ko'z oldiga keladi. (26-b.) Otaqo'zi bu shirinsuxan, xushchaqchaq odam bilan ilk bor tanishgandayoq, u ham o'ziga o'xshagan "tanti" yigit ekaniga amin bo'ldi. (73-b.) Hammomdan chiqqanday qizarib ketgan, lekin xushchaqchaq mamnun Vohid Mirobidov minbardan tushib, joyiga borib o'tirdi. (74-b.) U aft-angorigina emas, gap-so'zlari, xulq-atvori, qiliqlari bilan ham xuddi otasining o'zginasi, xushchaqchaq, shirinsuxan, ochiq-yorug' juvon edi. Mahbuba ham bir necha kungacha qovog'ini uyib yurdi, biroq tabiatan dadasiga o'xshash xushchaqchaq juvon, keyinroq orada hech narsa bo'lmaganday bo'lib ketdi. (176-b.) ...o'yin-kulgudan boshqani bilmaydigan sho'x, xushchaqchaq Tohira, endi qandaydir o'zgarib, cho'kib, qisilib, qimtinib qolganday tuyuldi unga.*

Shod: *Ilgari Haydarni ko'rganda sevinchdan porlab ketadigan jodu ko'zlarida endi kishini tahqirlovchi sovuq bir ifoda paydo bo'ladi, ilgari hayajondan entikib, goh shod, goh g'amgin kulimsirab turadigan qiz, endi ichimdagini top qabilida ish qiladi. (134-b.) Qizi Tohira behad shod, ... Oyiying yuziday uzinchoq, yoqimtoy yuzi lov-lov yonib, yelkasiga tushgan timqora*

sochlarini tez-tez to'g'rilab atrofga betinim alanglar, ko'zlari charaqlab hammaga kulib boqardi.

2. Xafalik holatini ifodalovchi sifat leksemalar ham tilimizda keng tarqalgan: *g'amgin, dilgir, xafa, xomush, ma'yus, giryon, xunibiyron, diltang* kabilar. Bunday leksik-semantik guruhlar tarkibiga kiruvchi leksemalarning qo'llanishida farqli holatlar ham ko'zga tashlanadi. Jumladan, **xafa, ga'mgin, xomush, dilgir** kabi sifat leksemalarning belgini ifodalash darajasi bir xil bo'lsa, **g'amgin, xomush** so'zlari kishining yuz-ko'zidan ifodalanib turadigan g'amginlik holatini bildirishga xizmat qiladi, **g'ash** leksemasi esa insonning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari bilan bog'liq holatni aks ettiradi. Shu leksik-semantik guruh tarkibiga kiruvchi **ma'yus** so'zida belgi darajasi ancha kuchli bo'lib, u insonning umidsizlikka tushgan, tushkun holatini ifodalaydi:

Hasharchi qo'shni qiz uning sevgani,

Ma'yus bosar edi orqamdan odim. (G'.G'.)

Diltang leksemasi insonning xafalik holati juda kuchli darajada ekanligini, yuragi siqilgan holatini bildiradi:

Jo'nar bo'ldim men bundan *diltang*,

Yo'llaringa qarab qolding sen. (A.O.)

G'ash: *Ehtimol, bo'lg'usi kelini o'z onasiga, yoshlikdagi Fazilatga juda o'xshab ketgani uchundir, ehtimol, yonida ana u xodasimon zanjisifat erkak ketayotgani uchundir: "Bu nozanin onasiga o'xshab rosa o'yin ko'rsatmasa edi hali!" degan notinch fikr - bu o'y ko'pdan beri miyasidan chiqmas edi, - Otaqo'zining ko'nglini qattiq g'ash qildi. (11-b.) Uning bu hazilida ham o'ziga ishonch, ham "sizni hech kimga rashk qilmayman!" degan ma'no bor edi, bu ma'no negadir Shukurovning hamiyatiga tegdi-yu, g'ashi kelib: "Bo'pti! Bo'lmasa siz qoling, men bolalarni loib, o'zim ketaveraman!" demoqchi edi, biroq shu payt shiyponda telefon jiringladi, ketma-ket qaynotasining: "Abrorjon!" -degan ovozi keldi. (29-b.) Zaiyofat vaqtida esa tog'asining gapidan ko'ngli g'ash, "qittaygina" otib olib,, ancha o'yin ko'rsatdi. Otaqo'zi negadir ko'ngli g'ash bo'lib, telefon zakaz qildi-da, divanga yonboshladi. Tohiraning gaplari oldin Latofatning*

ko'nglini g'ash qildi. (130-b.) Latofat ko'nglidagi g'ashlikni bazo'r bosib, Tohirani yupatgan bo'ldi-da, o'rnidan turdi. (132-b.) Oktyabrning oxirlari edi shekilli, bir kun kechasi Fazilat yuragi g'ash, uyqusi qochib, yettinchi lampa shu'lasida kitob varaqlab o'tirgan edi, nogahon kimdir derazani chertdi. (136-b.) Shukurov g'ashi kelib, trubkani "shaq" etib qo'ymoqchi edi biroq shu payt Manbubaning ovozini taniganday bo'lib, trubkani changallaganicha qotib qoldi. (176-b.) U Obidov bilan Latofatni kuzatib qo'yib, qaytib kirdi, kirarkan, hozir Xolmurodov bilan ko'rishajagini o'ylab ko'ngli g'ash bo'ldi. (183-b.) Ayni zamonda uch-to'rt kundan beri ko'nglini xira qilayotgan bir g'ashlik xayolida ma'yus o'ylar uyg'otar edi. (188-b.)

G'amgin: U mana endi, har bir so'zi, ovozi g'amgin, nigohidan maehr yog'ilib turgan mittigina kampirining ko'ngil faryodini eshitgandagina, bu to'y-tomosha chol-kampirda qanchalik og'ir botishini his etdi. (18-b.) U Latofatni ilgari ham ko'rgan, hatto maktabda singlisi Tohira bilan o'qiydigan ko'zlari g'amgin bu qoracha qizchani ko'z ostiga olib qo'ygan, lekin songgi bir yil ichida uni bunchalik ochilib ketadi deb o'ylamagan edi. (34-b.) Qayerdandir olisdan, yotoqxonaning ortidagi kafedan yengil kuy va lapar eshitar, go'yo butun olam shod-xurram, yolg'iz u, Latofatgina notinch va g'amgin kayfiyatda edi. (59-b.) Mana shu shum xabar yetib kelganiga bir soatdan oshdi, ammo xayolidan o'sh kungi mash'um voqealar chiqmaydi: ko'z oldidan ariq bo'yidagi rayhon chopib o'tirgan ayaning mittigina basti, g'am cho'kkan dardli ko'zlari ketmaydi. (94-b.) Latofat uyda bo'lar, kechayu-kunduz boshini kitobdan ko'tarmas, qandaydir g'amgin, pinhoniylar xayollar og'ushidan chiqmas edi. (112-b.) –Ha, g'irt mastman!- Otaqo'zi boshini silkitib, g'amgin kulimsiradi. (235-b.) Domla g'amgin kulimsiradi.

Xafa: Otaqo'zi to'ydan so'z ochgani uchun o'zidan ham xafa bo'lib ketdi. (18-b.) –Siz xafa bo'lmang, otaxon,-dedi u qo'l qovushtirib. (298-b.)

Ma'yus: Kampirning ma'yus ko'zlari yana jiqqa yoshga to'ldi. Bo'lg'usi kelini Latofat esa, uning tamom aksi, tirnoqlariga xina qo'yilgan oppoq nozik qo'llarini tizzasidagi guldastaga xorg'in tashlab, katta-katta ma'yus ko'zlarini

boqqa tikib, o'yga tolgan, o'ylari ham ko'zlariday g'amgin, go'yo u bu yerga bo'lg'usi hayot yo'ldoshining quvonchiga sherik bo'lish uchun emas, o'zi istamagan bir marosimga majbur bo'lib, birovlar qistovi bilan kelgan. (168-b.) Odatda g'am nimaligini bilmay doim xushchaqchaq yuradigan Tohira bu safar qandaydir juda ma'yus ko'rinar, yuzi so'lg'in ko'zlari kirtayib qolgandi. (130-b.) Deraza ochiq, domla oldida qalin kitob, katta yozuv stoliga tirsaklarini tirab, ko'chaga qorong'u bo'shliqqa tikilib o'tirar, biroq aftidan hech narsa ko'rmas, u ma'yus xayol og'ushida edi. (206-b.)

3. G'azabli holatni ifodalovchi sifat leksemalar. Bunday leksik-semantik guruh qatoriga *g'azabnok, kinli, darg'azab, g'azabli* kabilar kiradi. Ular orqali insonning tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar, predmetlar, odamlar xatti-harakatidan noroziligi tufayli yuzaga kelgan kuchli ruhiy holati ifodalanadi:

Ba'zan yog'ayotgan o'qlar bamisol

Dudoqlardan *kinli* so'zlar uchgan on... (M. A.)

Darg'azab: *Soqijon Obidov qandaydir darg'azab bir alfozda polni gursillatib, eshiklarni sharaq-shuruq ochib kirib keldi. (283-b.) Soqijon Obidov shunday o'ksib gapirdiki, ota boya qanday darg'azab bo'lgan bo'lsa, endi shunday dovdirab, bir zum gap topolmay qoldi. (243-b.) Buni ko'rib darg'azab bo'lgan Normurod: -Bas!-dedi. (237-b.) Buning nimasiga darg'azab bo'ladi u? (173-b.) Normurod Shomurodov bu oppoq, xushsurat odamdan qattiq ranjib, darg'azab bo'lgan paytlari...ham bo'ldi. (25-b.)*

G'azabli: *Otaqo'zi yuragining tagidan daf'atan vulqonday qaynab kelgan g'azabni zo'r-bazo'r to'xtatib qoldi. (20-b.) Zum o'tmay bu g'azab, tog'asiga qarshi dilida jo'sh urgan bu isyon, qandaydir alamli bir tuyg'u bilan almashdi-yu, uzoq mum tishlab qoldi. (20-b.)*

4. Tilimizda *sog', sergak, hushyor, lol, mudroq, loqayd* kabi sifat leksemalar ham ruhiy holatni ifodalovchi leksik-semantik guruh qatorini tashkil etadi. Lekin bu qatorni tashkil etuvchi leksemalar anglatgan ma'nosidan salbiylik yoki ijobiylik semasi aks etmaydi:

Tog'day zil tashvishlar boshga tushsa, rost,

Biz faqat boqamiz loqaydu mudroq. (M. Ali)

Lol: *Bu kutilmagan jangdan garang bo'lib qolgan Proxor bir o'rtada lol bo'lib turgan Normurod Shomurodovga, bir oqsoqlanib kelayotgan O'rozqulga qaradi. (170-b.) Men oldin bir odam bilan gaplashishim kerak!-dedi domla Shomurodov va Xolidani lol qoldirib, mashinaga qarab ketdi. (247-b.)*

Shunday qilib, sifat leksemalar o'z semantik tabiatidan kelib chiqib, kishining turli ruhiy holatini ifodalashga xizmat qiladi hamda bunday sifatlar alohida leksik-semantik guruhlar qatorini tashkil etadi. Ular badiiy nutqda tasvirlanayotgan kishining turli xil kayfiyatini (shodligini, quvonchini, g'am-alamini), ichki kechinmalarini, ruhiy iztiroblarini aks ettirish va shu orqali kitobxonda ham turli xil emotsiyalarni hosil qilishda muhim uslubiy vositalardan biri sanaladi.

Sifat so'zlarining o'zaro sinonimiyasi, ularning turli nutq uslublaridan farqlanishi, sifat darajalarini hosil qiluvchi shakllarning ma'no farqlari, nihoyat, badiiy adabiyotdagi epitetlarning sifatlardan ifodalanishi bu turkum so'zlarning boy uslubiy imkoniyatlarini ko'rsatadi.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da ta'lim jarayonini mazmunan isloh qilish maqsadida o'quv-tarbiyaviy jarayonga ilg'or pedagogik texnologiyalarni, ta'limning yangi shakl va uslublarini joriy etish muhim vazifalardan biri ekanligi ta'kidlangan. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunda ham yangi asr avlodida komil inson shaxsini tarbiyalash ta'lim sohasidagi asosiy maqsad ekani ko'zda tutilgan. Shuni ta'kidlash joizki, ta'lim sohasidagi islohotlar o'qitish usullarini tubdan yangilash zarurligini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda o'qituvchining vazifasi o'quvchi shaxsida idrokli bilim sohibini shakllantirish, ijodiy mulohaza yuritishga yo'l ko'rsatishdir.

Dars jarayonida o'quvchining tayyor bilimlarni oluvchi passiv tinglovchi emas, faol mushohada egasiga aylantirish, ularning aqliy quvvatini oshirishda ta'limning noan'anaviy usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Kutilgan natijalarga erishishda har bir mavzuga mos dars turini belgilash muhimdir. Dars turlarining va shakllarining xilma-xilligi esa o'qituvchidan yuksak malaka, kasbiy mahorat, ijodiylik va izlanuvchanlik talab etadi. Shu ma'noda Ona

tili darslarida ta'limning noan'anaviy usullaridan foydalanish katta samara beradi. Quyida ana shunday zamonaviy usullardan birining qo'llanilish tartibini ko'rib o'tamiz:

Ma'lumki, izlanishga asoslangan har qanday faoliyat sermahsul faoliyatdir. O'quvchi ona tili materiallarini tayyor holda o'zlashtirmay, uni izlasa, faol ijodiy faoliyat ko'rsatsa, o'zlashtirish jarayoni ancha samarali bo'ladi. Muammoli ta'lim ana shunday izlanish va ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Bu metod shaxs va uning intellektual aktivligini har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Muammoli ta'lim o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirishga qaratilgan. Ijodiy qobiliyatlarni o'stirishga qaratilgan ta'lim esa rivojlantiruvchi ta'lim bo'lib sanaladi. Muammoli ta'lim ana shu fikrlash qobiliyati va bilish ehtiyojini vujudga keltiradigan asosiy vosita sanaladi.

Muammoli o'qitish yo'li bilan o'quvchilar faoliyatini faollashtirish, bilimlarni tayyor holda berish orqali ular faoliyatini faollashtirishdan farq qiladi. Muammoli ta'lim yo'li bilan o'quvchini faollashtirish natijasida biz uning muayyan bir sistemada fikrlashiga erishamiz. Bunday faollikning o'ziga xos xususiyati shundaki: "...o'quvchi faktik materiallarni analiz qilib, qiyoslab, tahlil qilib, umumlashtirib, oydinlashtirib undan o'ziga yangi axborot oladi".¹

Ona tili darslarida muammoli ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish orqali biz o'quvchilarni mantiqiy-lingvistik ish usullarini muvaffaqiyatli bajarishga o'rgatamiz; ularni aqliy hamda amaliy faoliyat usullari bilan qurollantiramiz; tilning qonun-qoidalari hamda so'z, so'z birikmasi, gap va matn bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini singdiramiz; til xususiyatlari hamda uning qonunlarini ijodiy o'zlashtirish va uni yozma hamda og'zaki nutqda ijodiy qo'llash malakalarini shakllantiramiz.

Muammoli ta'lim o'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantiradi. Ijodiy tafakkur esa o'quvchilarga noma'lum bo'lgan til hodisalarini bilib olish jarayonlarini faollashtiradi; egallangan bilimlarning puxtaligini ta'minlaydi;

¹ Maxmutov M.I. Maktabda muammoli ta'limni tashkil qilish. Toshkent. 1981, 15-bet.

o'quvchilarning til materiallariga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Ijodiy tafakkur, shubhasiz, ijodiy izlanish mahsulidir.

Muammoni yechishda o'quvchi turli vositalardan foydalanadi. Ayniqsa, muammoni yechishda darslik, o'quv qo'llanmalari, badiiy adabiyot va turli xildagi lug'atlarning roli katta. O'qituvchi muammoni yechish uchun o'quvchilar darslikdan nimani o'qib chiqishlarini yoki qanday mashqlarni bajarishlari lozimligini ko'rsatadi. Qo'yilgan muammoni to'g'ri yechish uchun o'quvchilarni to'g'ri o'qish malakalari bilan ham qurollantirish lozim. To'g'ri o'qish avvalo tushunib o'qish, unda ilgari surilgan g'oyani bilib olish demakdir. Ona tili darsligini o'qishning o'ziga xos xususiyatlari bor. O'quvchi nazariy muammoni to'g'ri hal qilish maqsadida darslikdan asosan kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish uchun berilgan materialni, ta'rif, qoida va xulosalarni o'qib chiqishi mumkin. Amaliy muammoni hal qilish maqsadida ba'zan nazariy ma'lumotlardan eng muhim o'rinlari o'qib chiqiladi. Badiiy muammolarni yechish esa o'quv topshirig'ining sharti, badiiy, fikrni uyg'otuvchi material (rasm, boshlanish qismi berilgan hikoya, reja va hokazo) o'qib chiqiladi. Ayniqsa, muammoni yechishda adabiyot darsligidagi materiallar, shuningdek, badiiy asarlarning roli katta. Badiiy adabiyot o'quvchi uchun nazariy ma'lumotlarni amalda qo'llash maydonidir. Grammatik qoida talabiga muvofiq, so'z, so'z birikmasi, gap va matnlar tanlashda o'quvchi badiiy adabiyotga murojaat qiladi.

Muammoni yechishning yana bir usuli o'quvchilarning mustaqil ishlashini o'qituvchining qisman yordami bilan qo'shib olib borishdir. Ayniqsa, murakkab mavzularni o'tishda o'qituvchining yordami zarur.

Ta'limda muammo yechimining to'g'riligini sinash o'qituvchidan katta pedagogik mahorat talab qiladi. Bu ishning murakkab tomonlaridan biri o'quvchilarda o'z taxmunlariga ishonch hosil qildirishdir.


O'xshatmalar tilning badiiy-tasviriy ifoda vositasi bo'lib, u so'zlovchi nutqining o'ziga xosligi, badiiy bo'yoqdorlikni ta'minlovchi muhim omil sanaladi. Badiiy adabiyotda ifodalanayotgan fikrning ta'sirchanligini oshirish maqsadida bu vositadan unumli foydalaniladi.

Ifodalab kelgan ma'nosiga ko'ra o'xshatmalarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Holatni ifodalovchi o'xshatmalar: *o'lgunday xasis, toshdek qattiq, "o'roq"day to'g'ri, halimday yumshoq;*
2. Inson xarakterini ifodalovchi o'xshatmalar: *chumoliday mehnatkash, qo'yday yuvosh, musichaday beozor, mushukday chaqqon, ilonday sovuq;*
3. Maza-ta'mni ifodalovchi o'xshatmalar: *bolday shirin, zaharday achchiq, qaymoqday mazali;*
4. Belgi-sifatni ifodalovchi o'xshatmalar: *anorday qizil, sutday oq, oydek go'zal, dokaday oppoq, ko'lankaday jim;*
5. Mavhum tushunchalarni ifodalovchi o'xshatmalar: *ilk sevgidek beg'ubor, qushday yengil.*

Matn yaratish jarayonida sifatning ma'no guruhlari ustida ishlash, ulardan turli qolipdagi o'xshatmalar hosil qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki, bunday birikmalar ot va sifatning o'zaro bog'lanishidan hosil bo'ladi.

Matn yaratish jaraonida bunday o'xshatmalardan foydalanish usullari xilma-xil. Ayniqsa, hosil qilingan o'xshatmali so'z birikmalar tarkibidagi har bir so'zga ma'nodoshlar topish (asalday-bolday, yuvosh-beozor kabi), ularga qarama-qarshi ma'noli so'z topish (asalday-zaharday, yuvosh-sho'x, beozor-dilozor kabi); birikmalarga ma'nodosh va qarama-qarshi ma'nolar tanlash (zaharday achchiq-zahri qotil, asalday shirin-mazali-totli; zaharday achchiq-asalday shirin kabi.); o'xshatmalarni frazeologik birikmalar yoki xalq maqollari bilan almashtirish (qo'yday yuvosh-qo'y og'zidan cho'p olmagan kabi); birikmalarni turli vositalar bilan bog'lash hamda ularning ma'nosini sharhlash;



kabi muayyan uyadagi o'xshatmalar ro'yxatini tuzish, berilgan yoki yaratilgan o'xshatmalardan foydalanib, yangi, o'xshatmali birikmalar ishtirok etgan gaplar tuzish kabi mustaqil ish turlari o'quvchilar nutqini shunday birikmalar bilan boyitish hamda ulardan matnning badiiy bo'yoqdorligini oshirishda foydalanish, matn yaratish madaniyatini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi so'z boyligini oshirishi tilning boy ifoda vositalarini puxta egallashga qaratilgan bunday topshiriqlardan unumli foydalanishi va ularni o'quvchilarning nutqiy faoliyatiga olib kirishi zarur.

Matn yaratish jarayonida o'xshatmalardan unumli foydalanish, o'xshatma-o'xshalmish qolipli so'z birikmalari va gaplar orqali matnning badiiy bo'yoqdorligini ta'minlash, o'quvchini ijodiy tafakkur sohibiga aylantirish, uni tilimizning boy ifoda vositalarini puxta egallash va o'z nutqida ishlatishga o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'xshatmalar nutq va matnninggina emas, balki badiiy adabiyotning ham eng zaruriy vositasi hisoblanadi. Mumtoz adabiyotimizda o'xshatma **tashbeh** deb yuritiladi.

Alisher Navoiyning mashhur bayti bor:

*Orazin yopg'och ko'zimdin sochilur har lahza yosh,
Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz nihon bo'lg'och quyosh.*

Mazmuni: Quyosh yashiringan paytda yulduzlar paydo bo'lganidek, yor yuzini yopganda mening ko'zimdan to'xtovsiz yoshlar to'kiladi.

Bayt lirik qahramonning hijron onlaridagi kayfiyatini ifodalaydi. Bu kayfiyatni g'azalxonlarga ta'sirchan qilib tushuntirishda keyingi satrdagi tashbeh qo'l keladi. Baytda yorning yuzi quyoshga, oshiqning ko'z yoshlari esa yulduzlarga qiyos qilinadi.

Ikkinchi bir misol:

*Ey, Navoiy, ohu fig'on chekmisham beixtiyor
Desa bo'lg'ay beshash Mozandaronga tushdi o't.*

Men beixtiyorman, o'zinga bog'liq bo'lmagan holda shunday o'hu afg'on chekyapmanki, deydi shoir, go'yo Mozandaronga o't tushdi desa bo'ladi. Buni mubolag'a o'xshatish deyish ham mumkin. Shoir o'zining g'amgin, xafaqon holatini Eronning Mozandaron degan bir viloyatiga o't tushganday bo'ldi, deb tasvirlamoqda.

Umuman, til va adabiyotni, matnni, xususan, she'riyatni o'xshatishsiz tasavvur qilish mumkin emas. Xoh nutqda, xoh yozma matnda bo'lsin, o'xshatishning boshqa tasvir vositalariga o'xshamaydigan muayyan vazifasi borki, u fikrni obrazli, ta'sirchan, tushunarli qilib ifodalashga ko'mak beradi. Shakldoshlar, ma'nodoshlar, zid ma'noli so'zlar singari o'xshatish ham so'zning, gapning ma'nosini bulut orqasidan chiqqan quyosh kabi balqitib, ochib yuboradi. Shuning uchun maktabda o'quvchilarning bu mavzular ustida ishlashini tashkil etish mustaqillik, ijodkorlik sari tashlangan amaliy qadam deb hisoblasak, adashmaymiz. Gap tuzish va matn yaratishda o'xshatishdan foydalanish o'quvchini obrazli tafakkur yuritishga, aytmoqchi bo'lgan fikriniqisqa, ixcham qilib ifodalashga o'rgatadi. Afsuski, tilning jozibadorligini ta'minlaydigan ushbu mavzuga til va adabiyot dasturida juda kam joy ajratilgan. Holbuki, bizning qadimiy qadriyatlarimizdan biri askiya janrida bu vositadan juda keng foydalaniladi. Masalan, askiyaning "o'xshatdim", "Gulmisiz, rayxonmisiz, jambulmisiz?" kabi turlari batamom o'xshatishga asoslangan. Shuningdek, kundalik og'zaki nutqimizda ham o'xshatish vositasi tez-tez uchrab turadi. Chunonchi yugurib kelayotgan bola yiqilganda ota-onalarimiz uni yupatish ma'nosida "ot yiqildi" deyishadi. Bola otga o'xshatiladi. Ma'lumki, poyga yoki uloqda yiqilgan otlar yotib qolmaydi, darrov turib ketadi. "Ot yiqildi" degan ibora ham bolani o'rnidan turishga, yig'lamaslikka da'vat qilishdir. Yoki o'zaro suhbatlarda misol uchun "Karim aka - daryo", degan iboraga duch kelamiz, "Valijon tog' ekan", degan iborani eshitamiz. Aslida bular ham o'xshatish. Birinchi misolda Karim akaning keng fe'lligi daryoga, ikkinchi misolda Valijonning irodasi, bardoshi toqqa qiyoslanyapti. O'qituvchining o'z darsida bunday misollarga murojaat qilishi, tarbiyaviy xarakter kasb etishi bilan birgalikda

o'quvchilarni o'xshatishdan foydalanishga, so'z ma'nosi ustida ishlashga, ayni vaqtda mavjud so'z boyligini ko'paytirishga undaydi.

Ona tilida "Sifat" mavzusini o'tishda o'qituvchi, ayniqsa, bir narsaga qattiq e'tibor berishi kerak. har bir o'xshatishning o'xshalmishi bo'ladi. Misollarga murojaat qilaylik: *Arslondek yigit, oydek qiz*. Bu misollarda arslondek, oydek so'zlari o'xshatish, yigit, qiz so'zlari o'xshalmishdir. O'xshatish va o'xshalmish bir-biriga mos, munosib kelishi lozim. Aks holda fikr tugal bir mazmunni berolmaydi. Ona tili ta'limida mazkur mavzuni o'rganish jarayonida o'xshatish haqida so'z yuritiladi-yu, o'xshalmish haqida lom-mim deyilmaydi. Vaholanki, ularni bir-biridan uzib o'rganish mumkin emas.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, matn yaratish jarayonida o'xshatmali birikmalardan unumli foydalanish – o'quvchi so'z boyligini oshirib borishda, uning so'z birikmalari hosil qilish hamda badiiy bo'yoqdor, jozibador gaplar tuzish va go'zal matnlar yaratish malakalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sifat haqidagi dastlabki tushunchalar o'quvchiga 4-sinfda beriladi. U sifatning so'rog'i, belgi-xususiyatlari, otga bog'lanib kelishi, juft va murakkab sifatlarning imlosiga doir ma'lumotlarni o'zlashtiradi. 6-sinfga kelib, sifat, sifat yasovchi qo'shimchalar, sifatning yasalishiga doir turlari: tub va yasama sifatlar, ularning hosil bo'lish usullari, tuzilishiga ko'ra sodda va qo'shma sifatlar, asliy va nisbiy sifatlar, asliy sifatlarning kichraytirish darajalari, ozaytirma shakllari va so'ngida esa o'tilgan mavzularni mustahkamlovchi topshiriq – "Ranglar jilosi" ma'rifiy matni (Ne'matov H., G'ulomov A. va boshqalar. T.: "O'qituvchi", 2004 yil, 141-bet) yuzasidan quyidagi vazifalar beriladi:

1. Matndan sifat so'z turkumiga oid so'zlarni toping.
2. Sifatlarning ma'noviy guruhlaridan qaysilari ishtirok etgan?
3. Tub va yasama sifatlarni ajrating.
4. Sifatlarning tuzilishiga ko'ra turlarini aniqlang.
5. Asliy va nisbiy sifatlarni alohida ajratib yozing.
6. Sifatni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.

7. Sifat darajalarini aniqlang.
8. Sifatlarning gapdagi vazifasini aniqlang.
9. Sifatlarni tushirib qoldirib matnni o'qing va farqini tushuntiring.
10. Otlashgan sifatlarni ajrating va izohlang.

Matnda *keng tekislikda, baland joydan, issiq kunlarda, baland otilib turgan favvora, quyoshli kunda, kichik kamalak, turli xilda, yuksak san'at, yomon rang, tasviriyl san'atdir* kabi sifatlar va *salqini* – otlashgan sifat ishtirok etgan.

Keng – sifat, tub sifat, sodda sifat, oddiy daraja, shakl bildiruvchi sifat, asliyl sifat, keng tekislikda (sifat+ot), gapda aniqllovchi vazifasida kelgan.

Baland – sifat, yasalishiga ko'ra tub sifat, tuzilishiga ko'ra sodda sifat, oddiy daraja, shakl bildiruvchi sifat, asliyl sifat, baland joydan (sifat+ot), gapda joydan so'zi bilan birgalikda o'rin holi vazifasida (baland joydan – qayerdan?) ishlatilgan.

Matnda **salqini** degan otlashgan sifat qatnashgan. *Salqin* – sifat, otlashgan holatda esa *salqini bilan* – nimasi bilan? so'rog'iga javob beradi, gapda to'ldiruvchi vazifasida qo'llangan.

Savol va topshiriqlar asosida o'quvchilarning bu kabi mushohada yuritishlari orqali o'tilgan mavzular yuzasidan takrorlash, atamalarni o'z o'rnida qo'llash orqali mavzularni mustahkamlash ishlari olib boriladi. Biroq “o'tilganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darslarining asosiy vazifasi o'rganilgan bilimlarni takrorlashdangina iborat bo'lmasdan, balki mavzular doirasida o'quvchilar bilimni kengaytirishdan ham iboratdir”¹. Demak, sifatlar bo'yicha matn ustida ishlash orqali o'tilganlarga qo'shimcha ravishda otlashgan sifatlar haqida ham ma'lumotga ega bo'lamiz. Bu haqda qisman ma'lumotni 6-sinfda bersak, yuqori sinflarda bu mavzu mustahkamlanadi.²

O'zbek tili morfologiyasida, boshqa so'z turkumlari qatori sifat ham katta o'rinni egallaydi.

O'zbek tilida belgi – sifat (качество) ma'nosini ifodalovchi maxsus (masalan, rus tilida sifat va ravishlardagi singari, hamma sifatlat uchun birdek

¹ Roziqov O. O'zbek tili dars tiplari. – T.: O'qituvchi, 1976.

² Mirmaxsudova M. Matn ustida ishlash jarayonida grammatik atamalarni faollashtirish. Uzluksiz ta'lim, 2002-yil, 3-son

qo'llana oluvchi) morfologik ko'rsatkich yo'q. Ba'zi bir so'zning ham ot, ham sifat, ham ravish vazifalarda qo'llana olishi ko'proq ana shuning uchundir. Lekin – li, -siz singari sifatning o'ziga xos yasovchi affikslari ham bor. Ammo bular ma'lum ma'noli sifatlarnigina yasaydi.

“Qart (qari) tipidagi so'zni dastlab sifat deb hisoblash mumkin, chunki u predmet belgisini bildiradi: sintaktik planda esa xuddi shu so'z: a) sifat tarzida ham; b) ot tarzida ham qo'llana oladi. Shunday qilib qart tipidagi so'zlarni semantik xarakteristika xususiyatlariga ko'ra, shartli ravishda sifat-ot atamasa bilan atasa bo'ladi.

Ot kategoriyasidagi so'zlar ham sifat (belgi ma'nosidagi aniqlovchi) vazifasida qo'llanadi va *qanday* degan so'roqqa javob bo'ladi. Masalan, *yog'och ot, sim to'siq, shoyi ko'ylak* kabi. Lekin bu so'zlarni ot kategoriyasidan sifat kategoriyasiga o'tdi deb hisoblamaslik lozim.

O'zbek tilida sifatlarning yasalishi juda keng va murakkab sohadir.

To'plangan faktik materiallar sifat yasovchi affikslarning yuzga yaqin ekanligini ko'rsatadi. Bu affikslar vositasida turli so'z turkumlaridan, mas., otdan (*iffatli, bahosiz, tungi, serpul*), fe'ldan (*so'zag'on, vaysaqi, sayratma*), taqlidiy, tasviriy so'zlardan (*jizzaki, sharaqlama*) va hokazolardan sifat yasaladi. Bulardan – li, -siz kabi yasovchilar faqat sifatga xos bo'lib, eng faol sifat yasovchilar hisoblanadi.

Sifat yasovchi affikslarni o'z tabiatlariga va turli-tuman xususiyatlariga (mas., sodda va qo'shma bo'lishi, faqat bir so'z turkumigagina xos bo'lib qolganligi yoki turli so'z turkumlari orasida teng qo'llana olishi, o'zakka turlicha ta'sir ko'rsatishi, qo'llanishda faol yoki nafaolligi, fonetik variantlarga egaligi, sinonimik, antonimik xususiyatlari va shu kabi turli tomonlariga) ko'ra, bir necha guruh va guruhchalarga ajratish mumkin.

Ba'zi bir so'zlar (sifatlar) tub holda ham, affiks olgan holda ham (mas., *pok//pokiza, binoyi//binoyiday*) bir ma'noni anglataverishi bilan xarakterlidir.

Be-, -siz, no-, -li, ba-, -dor, ser- kabi affikslar qo'llanishi jihatidan sinonimik xarakterga ega: *puldor//serpul, betinch//notinch//tinchsiz,*

beo'rin//noo'rin//o'rinsiz. Lekin shunga qaramay, affikslarning qo'llanishida farqlanib, chegaralanib qolgan, bir-biri bilan o'rin almashtira olmaydiganlari ham bor. Mas., *adab* so'zi *be-*, *-siz* bo'lishsizlik affikslarini oladi-yu, *no-bo'*lishsizlik affiksini qabul qilmaydi. *Pand* so'zi esa faqat *be-* affiksini oladi.

O'zak va affiks ba'zan yaxlit, ajralmas holatga kelib qoladi, ayrim hollarda esa yasalgan (yasama) so'zlarning ma'nosi o'zak ma'nosidan birmuncha uzoqlashadi yoki ma'lum darajada yangi ma'no kasb etadi. Mas., *yapasqi*, *shallaqi*, *beso'naqay*, *bejirim* va sh.k.

Sifat yasovchilar (yasama sifatlar)ga tuzilishi tomondan yondoshilib tahlil etiladi. Masalan: 1. Sodda sifatlar (tub, yasama). Bunda affiksatsiya usuli bilan yasalgan sifatlar beriladi. 2. Murakkab sifatlar. Bunda esa sintaktik usul bilan yasalgan (qo'shma, birikmali, tizma) sifatlar beriladi.

O'zaklarning qaysi so'z turkumidan ekanligi, yasalgan sifatlarning leksik-semantik, grammatik, stilistik tomondan keng turda va majoziy ma'no xususiyatlari, adabiy, dialektal, tarixiy variantlari, turkiy tillardagi qiyosiy ekvivalentlarini batafsil yoritish kabi mavzularni o'rganish tilshunoslikning oldida turgan vazifalardandir.

Sifatlarning eng xarakterli ma'no turlaridan "rang-tus bildiruvchi sifatlar" otlashishga juda moyil. Ulardagi bu otlashish xususiyati, ayniqsa semantik rang-baranglikni va ko'chma ma'nolarni yuzaga keltiradi.

Bulardan tashqari, rang-tus bildiruvchi sifatlarning darajalanish xususiyatlarida ham alohidalik mavjud. Ulardagi muhim tomonlardan yana biri, frazeologik iboralar, maqol-matal, qo'shiq, topishmoq, aforizmlar tarkibida juda ko'p qo'llanishidadir. Masalan, M.Ismoiliyning "Farg'ona tong otguncha" romanida birgina **qora** so'zi 163 yerda qayd etilgan. Rang-tus bildiruvchi sifatlar laqab, haqorat so'zlari, qarg'ish-koyish iboralarida va hazil-mutoyibalarda ham ko'p uchraydi.

Sifatlarning xarakterli xususiyatlarini tilshunoslik nuqtai nazaridan atroflicha tahlil va tadqiq etish ham nazariy, ham amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Sifat o'zbek tilida o'zining leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra mustaqil so'z turkumi sifatida alratilgan. Sifat turkumining ko'p sohalari ustida dissertatsiyalar yoqlandi, ilmiy maqolalar yozildi.

INSON RUHIYatINI AKS ETTIRISHDA FONETIK VOSITALARNING O`RNI

"Ekspressiv fonetika" terminini ilk bor tilshunos olim Sh.Balli asarida uchratamiz. Unda fonetik uslubiy vositalar keng tahlil etilgan. Rus tilshunoslari N.S.Trubetskoy, L.V.Shcherba, R.I.Avanesev, G.O.Vinokur, V.V.Vinogradov ham fonetik birliklarning turli uslubiy imkoniyatlari haqida yozganlar.

"Fonetik stilistik soʻz variantlari dubletlarning talaffuzi, yozilishidagi uslubiy imkoniyatlarning oʻrganilishi bilan leksik stilistikaga aloqador boʻlib, grammatik shakllarning dialektal koʻrinishlari va arxaik shakllardagi hissiy taʼsirchanlik boʻyogʻini tadqiq qilishiga koʻra grammatik stilistikaga yaqin turadi", - degan edi S.M.Gayduchik. Yaʼni fonetik vositalarda ifodalanadigan uslubiy boʻyoq tilning turli sathlari bilan bevosita aloqadorlikda roʻyobga chiqadi. Nutq tovushlari, ularning variantlari, urgʻu, boʻgʻin, ton, tembr kabi fonetik vositalarda uslubiy imkoniyatlar kengligini koʻrish mumkin. Fonetik birikmalarning uslubiy vazifalari tilshunoslikning fonostilistika boʻlimida oʻrganiladi. Tildagi segment va supersegment vositalarni tavsiflash, fonetik uslubiy klassifikatsiya qilish birinchi yoʻnalish boʻlsa, nutqiy meʼyor, adabiy talaffuz evfonologiyasi, fonetik sinonimiya, soʻzlovchining emotsional holati, sheʼrning ritmik va musiqiy tuzilishining tahlili bilan ikkinchi yoʻnalish shugʻullanadi. Oʻzbek tilshunosligida fonetik vositalarning uslubiy vazifasi, ulardagi nutqning taʼsirchanligini oshirish maqsadida

foydalanish imkoniyati borligi haqida dastlab A.Gʻ.Gʻulomov fikr bildirgan³. Olim unli va undosh tovushlarning choʻzilishi va tovush almashinishi natijasida fonostilistik xususiyatlar paydo boʻlishini taʼkidlaydi. E.Qilichev esa talaffuz stillari va intonatsiyaning stilistik imkoniyatlariga kengroq toʻxtaladi. A.Abduazizov, A.Rustamov, Sh.Shoabdurahmonov, H.Sharafuddinovlar ham fonetik vositalarning uslubiy boʻyoqdorligi haqida qimmatli fikr bildirgan. G.Yaxshieva fonetik uslubiy vositalarni nutq shakllari va har bir nutq shakli vositalari xususiyatlariga koʻra ikkiga

ajratadi:

- a) ogʻzaki nutq talaffuzining uslubiy xususiyatlari va imkoniyatlari, yaʼni tom maʼnodagi fonetik stilistika;
- b) ogʻzaki nutq talaffuzining uslubiy xususiyatlarini yozma nutqda grafik (imloviy) vositalar bilan aks ettirish, yaʼni tom maʼnodagi grafik stilistika.

Soʻzda denotativ va konnotativ maʼno mavjud. Yaʼni aloqa jarayonida faqatgina xabar almashilmasdan, soʻzlovchining his-hayajoni, tinglovchiga nisbatan subʼektiv munosabati aks etadi. Oʻzbek tilshunoslarining yuqoridagi fikrlarini rad etmagan holda shuni aytish mumkinki, kommunikatsiya har bir gap, soʻz va hatto tovushning tanlanishi ham bevosita inson ruhiyati bilan bogʻliq. Buni hatto oʻzimiz ham sezmaymiz. Bu gʻayriixtiyoriy hodisaga oʻxshaydi, ammo chuqurroq tahlil qilinsa, bu jarayon uzluksiz ong osti qatlamlarida miyaning bevosita buyrukdari bilan amalga oshayotganligini bilamiz. Bu holatni badiiy matnda kuzatgan maʼqul. Har bir soʻzda tovush va maʼno uygʻun boʻlsa, bunday soʻz yorqin, yashovchan, oʻzining mustahkam oʻrniga ega boʻladi va bunday soʻzlar soʻzlashuv, badiiy uslubda keng qoʻllaniladi. Chunki tovushlar soʻz maʼnosini yanada boʻrttiradi, emotsional boʻyoqdorligini oshiradi. Koʻpchilik sheʼrda ritm, qofiya, dono fikr, tasviriy vositalarning boʻlishi etarli deb oʻylaydi. Bu toʻgʻri emas.

E.Bagritsskiy: "Sheʼning har bir harfi organizmdagi hujayraga oʻxshaydi va u doimo harakatda. Sheʼrda oʻlik hujayralar boʻlmaydi", -desa, S.Marshak yana ham aniqroq qilib: "Sheʼrda nafaqat har bir soʻzga, balki har bir tovush, har bir unli, har bir undoshga maʼno yuklatiladi",-deydi. A.P.Juravlyovning tovushlar ustida oʻtkazgan qiziqarli tadqiqotlari bilan tanishgan oʻquvchi yuqoridagi fikrlarga eʼtiroz bildirmaydi. Haqiqatan ham, inson va tovush oʻrtasidagi munosabat tarixini kuzatsak, biz uzoq oʻtmishga ibtidoiy jamoa tuzumigacha borishimiz aniq. Aynan mana shu tovushlarni his qilish ularning rang-barangligini koʻra olish qobiliyati ijodkor ahlida yaqqol namoyon boʻladi. Ular oʻzlari ham sezmagani holda, ong osti sezimlariga tayanib soʻzlar, tovushlar tanlaydilarki, bu ijodkorlarning oʻziga xosliklari, uslublari deya baholanadi. Buning asosiy omillaridan biri tovushlar uyini yoki tovush va soʻz uygʻunligining har bir ijodkorning ruhiy olami, tashqi olamga munosabatidan kelib chiqqan holda aks etishidadir. Ushbu holatni psixolingvistik tadqiqotning fonetiq vositalar yordamida inson ruhiyatining aks etishi tarzida oʻrganish lozim. Bu, albatta, juda qiziqarli, munozarali mavzu, yaxshisi misollarga murojaat qilaylik.

Tilda nominativ ma`nosida tabiatan baholash elementi mavjud bo`lgan so`zlar borligi, ular biror narsa-hodisani atabgina qolmay, ayni paytda so`zlovchining ifodalanayotgan tushunchaga o`z bahosini, sub`ektiv emotsional-ekspressiv munosabatini ham ifodalashi, bunday so`zlar emotsional-ekspressiv leksik qatlamni tashkil etishi haqida avval yozilgan edi.

Tilda emotsional-ekspressiv munosabat ifodalashning muhim vositalaridan yana biri ma`lum bir semantik guruhlariga mansub bo`lgan so`zlarni metaforik qo`llashdir.

Ma`lumki, ma`noning o`xshashlik printsipi asosida ko`chishi metaforaning muhim belgisini tashkil etadi. Biroq predmetlar yoki hodisalar orasidagi tashqi o`xshashlik asosida ko`chirilgan ma`nolar (*taxtaning ko`zi, derazaning ko`zi, buloqning ko`zi, stolning oyog`i, tog`ning beli, dutorning bo`yni* va h. k.) bilan predmet (keng ma`noda) va uning harakati nomlarining insonga nisbatan, uning tabiati va harakati belgilarini xarakterlashga mo`ljallab ishlatilishi (*eshak, it, to`ng`iz, qo`chqor, qo`zichoq, bo`taloq, ilon, chayon, lochin, bulbul, akillamoq, vaqillamoq, sayramoq* kabi so`zlarning metaforik qo`llanishi) natijasida hosil bo`luvchi ma`nolar orasida katta farq bor. Birinchi holda so`zning metaforik qo`llanishi borliq hodisalarining ma`lum bir tashqi belgi, xususiyatlarini obrazli anglatish taqozosi bilan sodir bo`lgan. Obrazlilik esa har qanday metaforik qo`llashga xosdir.

Ikkinchi holda esa metaforik qo`llangan so`z nutq sub`ekti (so`zlovchi)ning nutq ob`ekti (bunda shaxs va uning harakati)ga nisbatan yorqin sub`ektiv emotsional-ekspressiv munosabatini ifodalaydi.

Tilda odamning turli xil belgi, xususiyatlarini anglatuvchi qator so`zlar amal qiladi. Xususan, uning axloqiy, intellektual, sotsial belgilarini, shaxsiy xususiyatlarini anglatuvchi *iflos, yaramas, dono, mard, jasur, botir, saxiy* va shu

kabi soʻzlar yuqorida aytilgan tematik gruppaga birlashadigan soʻzlardir. Bu soʻzlarning leksik maʼnolarida nutq predmeti (odam)ni ijobiy yoki salbiy emotsional baholash elementlari mavjud.

Biroq til arsenalidagi bu kabi soʻzlar nutq subʼekti (soʻzlovchi) nazarida uning emotsional-ekspressiv munosabatini nutq predmetiga nisbatan oʻz istagi darajasida ifodalashga oʻzgarish qilib qoladi. Mana shu nuqsonni bartaraf etish maqsadida u ongli ravishda hayvon, gazanda, qush va shu kabilarni, shuningdek ularning xatti-xarakatlarini anglatuvchi soʻzlarni metaforik maʼnoda qoʻllashga utadi.

Bu xilda ishlatilgan soʻzlarning qay tarzda emotsional maʼno kasb etishini komponent tahlil usuliga murojaat qilinsa, aniqroq tasavvur qilish mumkin: *Ichib olgan bu eshak. Boʻlmasa, birovni urib, gʻizgʻizon boʻp ketadimi*,... (U. Xoshimov). Bu misoldagi *eshak* soʻzi nominativ (bosh) maʼnoda «uy hayvonining bir turi», «ahmoq», «yaramas» semalariga ega, metaforik maʼnoda esa «ahmoq», «yaramas», «odam» semalaridan tashkil topgan. Nominativ va metaforik maʼno strukturasini kuzatish bu ikki nominativ maʼno uchun umumiy boʻlgan semalar «ahmoq», «yaramas» semalari ekanligini koʻrsatadi⁴. Xuddi mana shu umumiy semalar *eshak* soʻzining metaforik maʼnosi hosil boʻlishida asosiy rolni oʻynagan.

Demak, bu tipdagi maʼno koʻchishida ham metaforaga xos oʻxshashlik belgisi muhim omillardan hisoblanadi. Biroq bu oʻxshashlik tashqi belgilar (stolning oyogʻi, togʻning beli va shu kabilar singari) oʻxshashligi emas, balki intellektual, xarakterlovchi belgilar oʻxshashligidir va maʼno koʻchish ham mana shu oʻxshashlik asosida sodir boʻlgan.

Yuqoridagi misolda soʻzlovchi *eshak* soʻzi oʻrniga «yaramas», «ablah» soʻzlarini qoʻllash bilan ham nutq predmeti boʻlmish «odam»ga nisbatan salbiy emotsional munosabat ifodalashi mumkin edi. Biroq bunda «uy hayvonining bir turi» semasi bilan «odam» semasi (farqlovchi semalar) orasida paydo boʻladigan semantik kontrast hosil boʻlmaydi. Demak, metaforik qoʻllash natijasida sodir boʻladigan stilistik-ekspressiv, emotsional effekt ham ifodalanmay qolgan boʻlardir. Semantik kontrastning metaforik maʼno strukturasida emotsional baho elementi vujudga keltirishga sabab shuki, umumiy semalar farqlovchi semalar fonida

ijtimoiy ongda turlicha qiymat bilan baholanadi. Masalan, eshak (uy hayvonining bir turi) va *odam* semalari (farqlovchi- semalar) fonida eshakka xos bulgan befahmlik va boshqa salbiy belgilar odamga xos shunday belgilardan o`ta darajada ortiq deb baholanishi metaforik ma`noda juda yorqin, ortiq darajadagi salbiy emotsional ma`no hosil qilinishiga asos bo`ladi. Ko`rinadiki, bu tipdagi ma`no ko`chishida o`zaro bog`liq ikki holat amal qiladi: 1. Umumiy semalar anglatadigan belgilar o`xshashligi; 2. Farqlovchi semalar anglatadigan ma`nolar kontrasti.

Umumiy semalar, yuqorida aytilganidek, metaforik ma`no hosil qilishning lingvistik asosini tashkil etsa, farqlovchi semalar salbiy (yuqoridagi kabi) yo ijobiy emotsional munosabat ifodalanishining asosini tashkil etadi.

Ijobiy emotsional-ekspressiv ma`no hosil bo`lish mexanizmi ham formal jihatdan salbiy emotsional-ekspressiv ma`no hosil bo`lish mexanizmiga o`xshaydi. Masalan: «*Tirishganning to`tsmog`i toshga chega qoqar*»,— *der. Yashnar dalayu bog`i, Ish boshida keksa sher* (Mirtemir) misolidagi *sher* so`zi metaforik ma`noda *kuchli, botir, odam* semalaridan tashkil topgan. Umumiy semalar (*kuchli, qo`rqmas*) asosida hosil bo`lgan metaforik ma`no farqlovchi semalar asosida hosil bo`luvchi semantik kontrast fonida yorqin ijobiy emotsional ma`no kasb etadi. Yirtqich hayvonga xos bo`lgan kuchlilik, botirlik belgisi insonga xos bunday belgilardan beqiyos darajada yuqori turadi. Insonga xos bu belgilarning ijtimoiy ongda yuksak baholanishi hosil bo`lgan metaforik ma`no strukturasida yorqin ijobiy emotsional baho elementi paydo bo`lishiga sabab bo`ladi.

Umuman, odamga nisbatan har qanday nom ko`chirishlar yuqorida ko`rsatilgan mexanizm asosida emotsional-ekspressiv ma`nolar hosil bo`lishiga olib keladi. Bu qoida *latta, kesak, oshkovoq, sakillamoq, irillamoq, hangramoq, ilon, chayon, quzg`un, lochin, karg`a, xo`roz* va shu kabi so`zlarning metaforik qo`llanishida ham bir xil kuchga ega bo`lgan qoida sifatida amal qiladi.

So`zning metaforik ma`noda qo`llanilayotganini anglab olish odatda qiyinchilik tug`dirmaydi. Buning sababi shundaki, metaforik ma`no kasb etgan so`z qo`llanadigan leksik qurshov (kontekst) bu so`zning nominativ ma`noda qo`llanishi mumkin bo`lgan kontekst-

dan farq qiladi. Xususan, «*Ichib olgan bu eshak*» (U. Hoshimov), «*Ish boshida keksa sher*» (Mirtemir), *Ko'kchatovda ko'k kamzulli bir ohu ko'rdim: Taajjubki, oyog'ida kizil etikcha* (A. Oripov) misollaridagi *eshak*, *sher*, *ohu* so'zlarining nominativ ma'noda keltirilgan kontekstlarda qo'llanishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Darhaqiqat, «*arok. ichib olgan*» birikmasi nominativ ma'nodagi (uy xayvonining bir turi ma'nosidagi) *eshak* so'zi bilan *ish boshida* so'zlari nominativ ma'nodagi (yovvoyi yirtqich hayvonning bir turi ma'nosidagi) (*keksa*) *sher* so'zlari bilan, nominativ ma'nodagi *ohu* so'zi *ko'k kamzulli, oyog'ida kizil etikcha* so'zlari bilan semantik aloqaga, demak, sintaktik aloqaga ham kirisha olmaydi. Aks holda mantiqiy nomutanosiblik paydo bo'lgan bo'lar edi (aroq ichib olgan eshakni, egniga ko'k kamzul, oyog'iga qizil etikcha kiygan ohuni, ish boshida turgan sherni tasavvur etib ko'ring). Demak, ko'chma ma'noda odamni yoki uning biror harakatini anglatuvchi so'z semantik moslik qonuniga muvofiq ma'lum bir ma'noli so'zlar bilangina semantik va sintaktik aloqaga kirishadi.

Uzbek tilida metaforik qo'llanish natijasida emotsional-ekspressiv ma'no hosil qiluvchi juda ko'p so'zlar bor.

1. Bular orasida zoomorfizmlar (kishilarning obrazli xarak-terietikasini berish maqsadida hayvonlar, parrandalar, hasharotlar nomlarini metaforik ma'noda qo'llash) alohida o'rin tutadi. Zoomorfizmlar umumiy xususiyatlariga ko'ra quyidagi tematik guruxlarga birlashtirilishi mumkin.

2 Yirtqich, yovvoyi hayvonlarni anglatuvchi suzlar: *buri, sirtlon tulki, sher, yo'lbars, tung'iz, aiik, fil* va boshqalar. Masalan, *Sizni og'zi k.on bo'ri dedim, chunki sizda rahm iuk*, (A. Qodiriy). *Xoy byrilar, so'zlaringdan qayt...* (Hamza). *Yaxshiligingizni unutdi to'ng'iz...* (A. Qodiriy).

2.Uy hayvonlari va ularning bolalarini anglatuvchi so'zlar va leksikalizatsiyalashgan so'z birikmalari: *it, eshak, ho'kiz, bo'ta, qo'chqor, qo'zi, itvachcha, kuchukvachcha, cho'chqa, megajin, uloq, taka, shumtaka, sassiktaka, buzoq* (ammamning buzog'i) va boshqalar. *Olib chiqing bu itni,*

kuchukvachchalarini ham yo`qoting (Yashin). *Onang osildimi, otang o`ldimi, sen etim qoldingmi, qayg`urma, qo`zim* (G`. G`ulom). *Bo`tam, siz menga kim bo`lasiz* (S. Ahmad).

3 Qushlar va uy parrandalarini anglatuvchi so`zlar: bulbul, qarg`a, quzg`un, kalxat, lochin, soflochin, burgut, sinchalak, chittak, to`ti, boyqush, jibljibon, xo`roz, tovuq, jo`ja, jo`jaxo`roz va h. k.; *Ona tilim, sen borsan, shaksiz, B u l b u l kuyin she`rga solaman. Sen yo`qolgan kuning, shubhasiz, men ham t o` t i bo`lib qolaman* (A. Oripov). *Otim — Berdimurod, men xalqimning o`g`li, Sahroda sayrovchi sayroq b u l b u l i* (Berdaq).

4 Gazandalarni anglatuvchi so`zlar: *gazanda, baqa, toshbaqa, qur-baqa, ilon, chayon, kaltakesak, mingoyoq* va h. k.: *Ilonsan, tilingdan tomadi zahar...* (Yashin). *Ey chayon, zahringni mening mana bu yura-gimga solsang bo`lmasmidi?* (Yashin).

5 Hasharotlarni, qurt-qumursqalarni anglatuvchi so`zlar: *chigirtka, o`rgumchak, zuluk, chumoli, biy, chuvalchang* va h. k. *Xonjallod, qozikalon— o`rgimchak, yasovulboshilar esa zuluk edi* (J. Sharipov). *J a l o l M a n s u r: Amir — fil, siz u biz — ch u m o l i.*

II. Hayvonlar, qushlarning tovush chiqarish harakatini anglatuvchi so`zlar metaforik ma`noda stilistik bo`yoqdor bo`ladi: *sayramoq, kukulamoq, akillamoq, pirillamoq, g`ingshimoq, ulimoq, vaqillamoq, vaqirlamoq, vovag`lamoq, bo`kirmoq, o`kirmoq, chiyillamoq* va h. k. *E, a k i l l a y v e r a s a n - d a, Safar — dedi bo`qoq. Biz nima deyapmiz-u, sen nima deyapsan!* (A. Qodiriy). Bu bilan u (Sayfi Soqievich) «g`ingshib nima qilasan» deganday bo`lar, bundan Sherzodning battar g`ashi kelar, ammo nima qilishini bilmasdi (U. Hoshimov). *Uch taloq qo`yib ketibdi-ku. Endi didingdagini topib berarsan, ko`p vaqir-layverma* (M. Ismoilij).

III. Diniy-afsonaviy tushunchalarni anglatuvchi so`zlar ham metaforik ma`noda emotsional-ekspressiv bo`yoq yaratadi: *alvasti, jodugar, hizir, azroil, farishta, shayton, iblis, jannat, do`zax, jahannam, dajjol, ajina, ajdar, ajdaho* va

h. k.: *Yaxshi ro`zg`or—jannat, yomon ro`zg`or — d o`z a x* (Maqol).

IV. Kasallik turlarini anglatuvchi so`zlar ham metaforik ma`noda emotsional-ekspressiv bo`yoq ifodalaydi: *pes, moxov, sil, maraz, kuydirgi, ko`ksov, quyonchiq, bezgak* va h. k. *Iz qolmas... millatfurush o`sha peslardan* (Mirtemir).

V. Jonsiz predmet, o`simlik, uy-ro`zg`or buyumlari, turli predmet nomlarini, ozuqa nomlarini anglatuvchi *gul, oshqovoq, dumbul, terak, kesak, tosh, elim, latta, egov, to`nka, shakar, asal, kulcha, novvot, shokolad, shirmon, sumalak* va shu kabi so`zlar metaforik ma`noda emotsional-ekspressiv bo`yoq kasb etadi. *O`zi o`taketgan elim odam deyishadi* (P. Tursun). *Ha, sumalak, namuncha cho`zilding?* (So`zlashuvdan). *Xotinim ham g`ingshiy boshladi: Kallavaram bo`lmasam senga o`xshagan to`nkaga turmushga chikarmidim* («Mushtum»).

Shuni qayd qilish lozimki, metaforik qo`llashda so`zlovchining kommunikativ maqsadiga mos ravishda ba`zi polisemantik. so`zlarning faqat bitta semasi aktuallashadi. Buni konkret kontekst belgilab beradi. Masalan, *Oh, baxtsiz malikam! Mening bulbulim... qayda-san... Nega sayramaysan?* misolida *sayramok* so`zining «yoqimli, orombaxsh tovush chiqarmoq» semasi aktuallashgan. Bunda *sayramok* so`zi ijobiy emotsional-ekspressiv bo`yoqqa ega. Quyidagi misolda esa bu so`z keskin salbiy emotsional-ekspressiv bo`yoqqa ega. *Ko`p sayrayverma, ovozingni o`chir* (So`zlashuvdan). Bu holda *sayramok* so`zining «to`xtovsiz va bemazmun tovush chiqarmoq» semasi aktuallashgan.

Quyidagi qo`llanishda esa *sayramoq* so`zining «azob berib, majburan gapirtirmoq» semasi aktuallashgan: *Men aniq bilaman, yashiringan dushman, Saroyga yuborgan bu shum josusni! Ruxsat ber, s a y r a t a y qo`liga sanchib ignani!*

*Jannat, jahannam, do`zax* so`zlari ham metaforik qo`llanganda ularning leksik ma`no strukturasiga kiruvchi ma`lum bir semalarning aktuallashuvi natijasida turli xil ko`chma ma`nolar kasb etadi. Masalan, *jahannam* so`zi ma`no strukturasiga kiruvchi quyidagi semalar aktuallashadi: 1) «Chuqur» semasi:... *hamma gap-*

suvda-da. Mana shu jahannamda oqayotgan suvni baland ko'tarib, cho'llarni obod qilmoqchi bo'lgan deydilar (Oydin). 2) «dahshatli qiynoq» semasi: Nega ona to'ng'ich qizini jahannam azobiga tashlamoqchi (I. Rahim). 3) «juda qattiq issiq» semasi: Kun issiq bo'lsa ham, yoz oylarining jahannamiga nisbatan bu faslning havosi pokistonliklar uchun juda muloyim, hatto salqindek sezilar edi (Oybek).

Xuddi shuningdek «Yaxshi xotin — jannat, yomon xotin do'zax» maqolida metaforik ishlatilgan jannat so'zining «rohat» semasi, do'zax so'zining esa «azob» semasi aktuallashgan.

Bayon qilingan fikrlar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Ba'zi o'zbek tili arsenalidagi mavjud leksik vositalar so'zlovchining nutq predmetiga nisbatan emotsional munosabatini uning istagi darajasida yorqin, obrazli qilib ifodalashga ojizlik qiladi. Bu nuqsonni so'zlovchi so'zni metaforik qo'llash usuli bilan bartaraf etadi.

2. Emotsional-ekspressiv metaforik ma'no hosil qilish mexanizmi insonga nisbat berib ishlatiluvchi barcha atamalar (bular so'z turkumlaridan asosan ot va fe'l bilan ifodalanadi) uchun bir xildir.

3. Emotsional-ekspressiv metaforik ma'nolar umumiy semalar asosida hosil qilinadi. Ularda salbiy yo ijobiy munosabat elementlarining hosil bo'lishi esa farqlovchi semalarning ijtimoiy ongda qanday baholanishiga bog'liq.

4. Polisemantik so'zning qaysi semasi aktuallashgani kontekstdan ma'lum bo'ladi.

Leksemaning mazmun planida, leksik ma'nodan tashqari, uslubiy baho ham hisobga olinadi. Masalan, *qush* va *qushcha* lekeemalari leksik ma'no anglatishi jihatidan bir xil, uslubiy bahosiga ko'ra esa farqli. Bulardan *qush* leksemasi uslubiy baho nuqtai nazaridan betaraf: anglatilayotgan narsaga ijobiy yoki salbiy munosabat ifodalanmaydi. Ammo *qushcha* leksemasida bunday munosabat yaqqol ifodalanib turibdi. Bu leksemaning semantikasi *qush* leksemasining

semantikasidan boy: leksik ma`no uslubiy baho bilan qoplangan, ya`ni narsa anglatilibgina qolmay, unga munosabat ham (b u o` r i n d a: kichraytirish-erkalash) ifodalangan.

Leksemaning mazmun planida asosiy hodisa - leksik ma`no. Uslubiy baho shu leksik ma`noga suyanadi, leksik ma`noni qurshab turadi.

Asli uslubiy baho haqida leksemani yaxlitligicha olib emas, balki konkret bir leksik ma`noni nazarda tutib gapirish to`g`ri. Haqiqatda, uslubiy baho bir leksemaning leksik ma`nolariga ko`ra har xil bo`lishi mumkin. Shu sababli bir leksemaning leksik ma`nolari hatto turli nutq ko`rinishlariga xoslangan bo`lib ham chiqadi. Masalan, *yo`talmoq* leksemasining bosh ma`nosida uslubiy baho betaraf, hosila ma`nosida esa salbiy uslubiy baho ifodalanadi («biror narsa demoq»). Shuningdek, *noz* leksemasining «jilva» ma`nosida ijobiy, «karashma» ma`nosida esa salbiy uslubiy baho seziladi.

Uslubiy baho, asosan, uch xil: 1) ma`lum morfema yordamida; 2) leksemaning o`zi bilan; 3) kontekst yordamida ifodalanadi.

Uslubiy bahoning morfema yordamida ifodalanishi *morfologik ifodalanish* deyiladi. Hozirgi o`zbek tilida bunday vazifani -cha (*qushcha* leksemasidagi kabi), **-gina** (*qizginam* so`zshaklidagi kabi), -jon (*otajonim* so`zshaklidagi kabi), -chak, **-choq** morfemalari (*kelinchak*, *qo`zichoq* leksemalaridagi kabi) bajaradi. Bu morfemalar ijobiy munosabat ifodalash uchun xizmat qiladi.

Uslubiy baho leksemaning o`zi bilan ifodalansa, *leksik ifodalanish* deyiladi. Bunda uslubiy baho ko`pincha leksemalarning o`zaro semantiq munosabatidan kelib chiqadi. Masalan, *yuz*, *bet*, *aft*, *bashara* leksemalari ayni bir leksik ma`noni anglatishi jihatidan bir xil, uslubiy baho ifodalashiga ko`ra esa farqli. Uslubiy bahosi eng betaraf leksema — *yuz*. Ikkinchi o`rinda *bet* leksemasi turadi, ammo uslubiy baho bu leksemada aniq seziladi. Masalan, *yuzingni yuv*, *betingni yuv* kabi bog`lanmalarda fikr bir, lekin munosabat boshqa-boshqa: ikkinchisi, odatda, kattaning kichikka yoki umuman mensimay muomala qilishda ishlatiladi. Bu jihatdan *yuzingni yuv* bog`lanmasi betaraf.

Misollardan *aft, bashara* leksemalarida esa uslubiy baho yana ham kuchli: o`zi anglatgan narsaga salbiy munosabat yaqqol ifodalanadi. Masalan, *aftingni yuv, basharangni yuv* kabi.

Umuman, uslubiy baho kuchaya borgan sari bunday leqsemaning boshqa leksemalar bilan bog`lanishi (kontekst) xususiylasha boradi, toraya boradi. Yuqoridagi misollardan *aft, bashara* leksemalari asosan ayollar nutqida ishlatiladi, shunda xam ko`pincha *qurimoq, olmoq, ko`tarmoq* kabi bir necha fe`l bilangina bog`lanib keladi: *afting qursin, basharang qursin, aftidan olsin, basharasidan olsin, aftidan ko`tarsin* kabi. Xuddi shunday bog`lanishlarda *yuz, bet* leksemalari deyarli ishlatilmaydi. Aksincha, oddiy, betaraf tasvirda asosan *yuz, bet* leksemalari ishlatilib (*Yuzini yuvib kirib ketdi* kabi), *aft, bashara* leksemalari bunday hollarda deyarli ishlatilmaydi.

Uslubiy baho asli betaraf baholi leksemani o`z ishlatilish doirasidan boshqa bir doiraga ko`chirish tufayli ifodalansa, *kontekstual ifodalanish* deyiladi.

Masalan, *bosh* leksemasi kishi a`zosiga nisbatan ishlatiladi, *kalla* leksemasi esa hayvon a`zosiga nisbatan ishlatiladn. Bularning har biri o`z ishlatilish doirasida uslubiy baho jihatidan betaraf (*Boshini quyi soldi. Kalla solib sho`rva qildim*). Ammo *kalla* leksemasi hayvondan odamga ko`chirib ishlatilsa, salbiy uslubiy bahoga ega bo`lib qoladi. Odatda, *bosh* leksemasi bilan aqllilik anglatilsa, *kalla* leksemasi shuning aksi uchun keltiriladi: *Kalla deb osh qovoqni ko`tarib yurgan ekansan-da, og`ayni!* Bu o`rinda *kalla* leksemasini *bosh* leksemasi bilan almashtirib bo`lmaydi.

Umuman, *bosh* bilan bog`liq salbiy tushunchalar, odatda, *kalla* leksemasi yordamida anglatiladi. Bunga misol sifatida *kallavaram, kallaxum (yoki xumkalla), kalla urmoq (kalla qo`ymoq)* kabilarni keltirish mumkin. Shu nuqtai nazardan quyidagi kontekstda *kalla* leksemasining ishlatilishi xato: *Bu oltin kallaning bahosi yuksak, Dushmanlar bunga xun to`lashi kerak! (Ya.)*

Quyidagi she`riy parchada esa shoir uslubiy bahodan juda ustalik bilan foydalangan (birinchi misradagi *bosh* leksemasi oxirgi misradagi *kalla* leksemasini uslubiy jihatdan juda bo`rttirib turibdi): *Bu Ja`farning boshini silar*

muallimi: «Barakalla»,— deb. U Ja`farga tushar dakkilar: «Hay, tezroq yur, kora kalla!»— deb Shayxzoda).

Kontekstual ifodalanishning bir turi deb uslubiy bahoning situativ ifodalanishini ko`rsatish mumkin. Bunday ifodalanishda har safar konkret nutq vaziyati nazarda tutiladi. Masalan, *olim* leksemasi shunday xislati bor kishiga qarata ishlatilsa, unda uslubiy baho betaraf bo`ladi. Agar bu leksema taqlidchiga, soxta intiluvchiga qarata mazax tariqasida aytilsa, bu leksema salbiy uslubiy bahoga ega bo`ladi: *Olimimiz mulohazalarini bayon qilmoqchilar-ku.*

Uslubiy jihatdan yondashib odatda betaraf baho va betaraf bo`lmagan baho haqida gapiriladi. Baho betaraf bo`lsa, *manfiy baholi leksema* (leksik ma`no) deb, baho betaraf bo`lmasa, *musbat baholi leksema* (leksik ma`no) deb atash mumkin. Yuqoridagi misollarda *kush* — manfiy uslubiy baholi leksema, *qushcha* — musbat uslubiy baholi leksema.

Musbat uslubiy baho ikki xil: ijobiy yoki salbiy bo`ladi. Morfologik ifodalanishda uslubiy baho ijobiy bo`ladi (misollari yuqorida). Leksik va kontekstual ifodalanishda esa uslubiy baho ijobiy ham, salbiy ham bo`lishi mumkin. Masalan, yuqoridagi mi-sollardan *bet*, *aft*, *bashara* leksemalari— salbiy uslubiy baholi. Shularning sinonimi bo`lgan *chehra* leksemasi esa ijobiy uslubiy baholi.

Leksik ma`noni qoplab turuvchi uslubiy (emotsional-ekspressiv) baho ham leksemaning mazmun planiga mansub semantik qism deb qaraladi va *uslubiy sema* deb yuritiladi. Masalan, *aka*, *og`a* leksemalarining leksik ma`nosida ayni bir ideografik semalar mavjud (*kishi*, *erkak*, *bir ota-onaning farzandi*, *yoshi katta*), ammo bu leksemalarning mazmun plani uslubiy sema jihatidan farqli: *aka* leksemasiga «betaraf» uslubiy semasi mansub bo`lsa, *og`a* leksemasiga «ijobiy» (ko`tarinki) uslubiy semasi mansub.

Leksemaning mazmun planida, ideografik va uslubiy semalardan tashqari, yana bir sema qatnashadi. Har bir leksema ma`lum bir turkumga mansub bo`ladi va bu mansublikni leksemadan anglashiladigan leksik ma`no belgilab turadi. Leksik ma`nodan kelib chiqib belgilanadigan bunday semantik qism *turkumlik semasi*

deyiladi (kategorial sema deb ham yuritiladi). Masalan, *aka*, *og`a* leksemalari ot turkumiga mansub, chunki bular «predmet» ma`nosini anglatadi; *yaxshi*, *baland* leksemalari sifat turkumiga mansub, chunki bular «predmetning belgisi» ma`nosini anglatadi va boshqalar. Leksik ma`no asosida ajratiladigan «predmet», «predmet belgisi» kabi semantik qismlar turkumlik semasi bo`lib, bunday sema ham, ideografik sema kabi, leksemaning semantik mazmunida qatnashadi.

Xullas, leksemanyang mazmun plani tarkibida uch xil sema ajratiladi: ideografik sema, uslubiy sema, tur-kumlik semasi.

Hozirgi tilshunoslik fani tilning fikr almashuv quroligina bulib qolmay, hislar ifodalash qobiliyatiga ega ekanligini ham tan oldi. Buni ayniqsa leksikada yaqqol ko`rish mumkin: lug`at tarkibida ifodalanayotgan fikrga so`zlovchining turli munosabatini anglatishga xizmat qiladigan, xoslangan so`zlar bor. Ana shu xoslanganlik nuqtai nazaridan o`zbek tili leksikasini ikki asosiy guruhga ajratish mumkin:

1. Emotsional—ekspressiv bo`yoq nuqtai nazaridan o`zbek tili leksikasi.

2. Stil` (uslub) nuqtai nazaridan o`zbek tili leksikasi. Bularni boshqacha termin bilan atash qulayroq: funktsional—ta`sirchan va funktsional-uslubiy jihatdan o`rganish deyish yaxshi. Chunki lugat tarkibidagi ba`zi so`zlar ma`lum bir tushunchani ifodalashdan tashqari, qo`shimcha emotsional-ekspressiv bo`yoqqa ham ega bo`ladilar: bo`sh-lavang, novcha-naynov, yuz-bashara, yuz-chehra kabi.

Ikkinchidan, so`zlovchi har qanday leksik birlikni o`zi kuzatgan kommunikativ maqsaddan (fikrni ifodali, ta`sirli, kinoyali

qilish) kelib chiqib tanlab ishlatadi. Shunga ko`ra so`zlar ma`lum nutq turi (funktional stil`)da qo`llanishga xoslangan bo`ladi: emoq-tushirmoq, ichmoq-otmoq kabilarning ikkinchi so`zlari so`zlashuv nutqiga xos.

Kishilar o`zaro aloqa jarayonida faqat fikr almashish bilan cheklanib qolmay, borliq voqea-hodisalarga o`z munosabatlarini ifodalashga ham intiladilar. Bu munosabat doirasiga g`azab, erkalash, nafratlanish, kinoya kabi xilma-xil emotsional holatlar kiradi. Ana shunday xususiyatlarning ba`zi so`zlarda ifodalanishi yoki ifodalanmasligiga ko`ra ular ikki turga bulinadi: 1) emotsional-ekspressiv bo`yoqsiz so`zlar, 2) emotsional -ekspressiv buyokdor so`zlar.

Emotsional-ekspressiv bo`yoqsiz so`zlarda, leksik ma`nodan tashqari, so`zlovchining turli munosabatini ifodalovchi qo`shimcha ottenka bo`lmaydi: bosh, kambag`al, katta, yuz, ovora. Bu tip leksika betaraf leksika ham deb yuritiladi.

Emotsional-ekspressiv bo`yokdor so`zlar narsa, belgi, harakat kabilarni atash bilan birga, so`zlovchinint shu narsa, belgi, harakatga bahosini, turlicha munosabatini ham ifodalaydi. Masalan, yuqoridagi so`zlarning sinonimlari kalla, qashshoq, ulkan, aft, sarson kabilarda atash bilan birga so`zlovchining turlicha munosabati ham ifodalangan.

Shu bilan bir qatorda tilshunoslikda emotsional leksika va emotsiyalarni atovchi tushunchalarni qorishtirish hollari uchraydi. Emotsional-leksika deganda, negizning o`zi orqali atash va so`zlovchining munosabatini anglatuvchi leksika anglashiladi, (aft, chehra, bashara). Hislarni atovchi (ularning nomlari) so`zlar ham mavjud (oh, eh, ofarin, rahmat). Bular bevosita turli

hissiyotlarni anglatishga xizmat qiladi, xolos. Shuning uchun bunday leksikani emotsional leksika sifatida baholash to'g'ri emas.

Emotsional-ekspressiv bo'yokdor so'zlar so'zlovchining suyish, erkalash, g'azab, kinoya, tan berish va boshqa munosabatlarini ifodalashi mumkin: Onam deganimda oqsoch, jafokash, munis va mehribon chehrang namoyon. (G'.G') U bir ko'ngli borib, muttaham qozining tumshug'iga, yo iflos basharasiga tupurgisi keldi. (M.Ism)

Tilda emotsional-ekspressiv bo'yoq to'rt xil: 1) leksik, 2) so'zni metaforik qullash; 3) affiksatsiya, 4) kontekstual usulda reallashadi.

Bu usulda uslubiy bo'yoq so'z negizining o'zi bilan ifodalanadi. Bunda so'zning o'z leksik ma'nosida tabiatan, aslan baholash elementi mavjud bo'ladi. Bu tip so'zlar so'zlovchining sub'ektiv-emotsional munosabatini ifodalashi nuqtai nazaridan ikki katta guruhga ajratiladi: 1) ijobiy munosabat anglatuvchi leksika, 2) salbiy munosabat (peyorativ) anglatuvchi leksika.

Ijobiy emotsional-ekspressiv munosabat anglatuvchi so'zlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: azamat, do'ndiq, do'ndirmoq, diloru, lobar, dildor, ketvorgan.

Salbiy emotsional-ekspressiv munosabat ifodalovchi so'zlar: kelgindi, sharmanda, makkor, surbet, benomus, iflos, haromi, o'laksa, mijg'ov.

Tilda nominativ ma`noli, uslubiy bo`yokdan holi bo`lgan so`zlar bilan bir qatorda, emotsional-ekspressiv bo`yoq kasb etuvchi so`zlar ham mavjud. Metafora ana shunday bo`yoq hosil qilishda muhim rol o`ynaydi. Ma`noning o`xshashlik printsipli asosida ko`chishi metaforadir. Ekspressivlik, ayniqsa, qush, hayvon, gazanda kabilarga inson hatti-harakatini metaforik ko`chirishda yaqqol seziladi. Bu xilda ishlatilgan so`zlarning qay tarzda emotsional ma`no kasb etishini komponent tahlil usuliga murojaat qilinsa aniqroq tassavvur qilish mumkin: Ichib olgan bu eshak, bo`lmasa; bironi urib, g`izg`izon bo`p ketadimi, xotintaloq (O`Hoshimov). Misoldagi "eshak" so`zi nominativ ma`noda uy hayvonining bir turi ammo matnda axmoq, yaramas semalari ro`yobga chiqqan. Bunda umumlashtiruvchi sema "axmoq", "yaramas", uy hayvonining bir turi va odam farqlovchi semalardir. Emotsional baho elementining vujudga kelishiga sabab, umumiy semalar farqlovchi semalar fonida ijtimoiy ongda turlicha qiymat bilan baholanadi. Ya`ni eshakka xos befahmlilik va boshqa salbiy holatlar (belgilar) odamga ko`chirilgan.

Ko`rinadiki, bu tipdagi ma`no ko`chirishda o`zaro bog`liq ikki holat amal qiladi: 1) umumiy semalar anglatgan belgilar (xarakter) o`xshashligi, 2) farqlovchi semalar anglatadigan ma`nolar qarama-qarshiligi (biri hayvon, biri odam).

Umumiy semalar metaforik ma`no hosil qilishning lingvistik asosini tashkil etsa, farqlovchi semalar: salbiy yoki ijobiy emotsional munosabat ifodalashning asosini tashkil etadi.

O`zbek tili arsenalidagi ma`vjud leksik vositalar so`zlovchining nutq predmetiga nisbatan emotsional munosabatini uning istagi darajasida yorqin, obrazli qilib ifodalashga ojizlik qilganida, so`zni metaforik qo`llaydi. Bu bilan yorqin emotsional-ekspressiv ma`nolar ifodalashga erishilmadi.

So`zga -cha, -xon, -jon, -gina, -qay, -loq, -chak, -chok, -voy, (-boy), -toy, -oy, -bonu qabi forma yasovchi va egalik affikslarini qo`shish bilan ijobiy emotsional-ekspressiv ma`no hosil qilinadi.

-gina: Qoshlari kunduz qizgina

Ko`zlari yulduz qizgina (Qo`shiq)

-jon: Gulga kon—bu makon,

Bulbuljon, sayra jon. (Qo`shiq)

Jon opa, o`zingiz yoza qoling, men adashib ketaman,- jon opa! (S.Ahmad)

-xon Salimxon, Sattorxon.

Undalma vazifasida kelgan dadasi, oyisi, opasi, akasi so`zlari ham ekspressivlik ifodalaydi.

Intellektual leksika. Ma`lum bir tushunchanigina ifodalab, kushimcha emotsional-ekspressiv buyokka ega bulmagan suzlar intellektual leksika deyiladi. Masalan: *er, suv, non, kalam, daftar, yil, hamma, tarbiya, masala, yuz, qora, qizil, ko`rmoq, bormoq, isbotlamoq* va boshqalar. Ilmiy-texnik terminlar, kasb-hunarga oid maxsus so`zlar, ijtimoiy-siyosiy va umumadabiy leksikaga oid ba`zi so`zlar ham emotsional bo`yoqqa ega bo`lmaganligi uchun intellektual leksikaga kiradi.

Intellektual so`zlar umumiste`moldagi leksikaga xos bo`lganligi sababli har qanday janrda ishlatilaveradi va stilistik jihatdan chegaralanmagan bo`ladi. Shunga ko`ra ular stilistik neytral leksika deb ham yuritiladi.

So`z turkumlaridan son, olmosh, ko`makchilar (*bir, ikki, ...o`n, yuz, ming...; men, sen, shu, bu, hamma...; bilan, uchun, kabi, singari, so`ng, keyin...*),

bog'lovchilar (*va, ham, ammo, agar, chunki, yoki, toki...*) deyarli intellektual leksikaga kiradi.

Emotsional-ekspressiv leksika va ularning turlari. Uzbek tili leksikasida ekspressiv va emotsional rangdorlik bilan bog'liq bo'lgan so'zlar ko'p. Masalan, quyidagi so'zlar ta'sirli va ifodali bo'yog'iga ko'ra nutqqa ko'tarinki, tantanali va ulug'vor ruh kiritadi: *navqiron* (yoshlik), *istiqbol* (egalari), *mag'rur* (jaranglamoq), *muqaddas* (burch).

Tilda o'z leksik ma'nosi bilan his-tuyg'u, kechinma va hayajon ifodalovchi so'zlar ham bor: *sevinch, quvonch, tabassum, dahshat, hiylagar* kabi.

Ba'zi ko'p ma'noli so'zlar to'g'ri ma'nosida emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lmaydi, lekin ko'chgan ma'nolarida emotsional-ekspressivlyk yaqqol seziladi. Masalan, *gumbaz* so'zining *qubba, ravoq* ma'nolarida emotsional bo'yoq yo'q, lekin ko'chgan ma'noda qo'pol, beso'naqay, semiz odamni ifodalaydi. Xuddi shuningdek, *mag'zava* so'zi ham ko'chgan ma'nosida (*mag'zava mahsum*) mujmal, lanj, sustkash odamni anglatadi.

Ba'zi holatlarda sinonim so'zlar bir-biridan emotsional-ekspressiv bo'yog'ining kamroq yoki yaqqol sezilib turishi bilai farqlanadi: *yuz, chehra, jamol, oraz, bet, aft, bashara, turq* kabi sinonim so'zlarning keyingi uchtasi o'zining emotsional-ekspressiv rangiga ko'ra oldingilaridan ajralib turadi. *Aft, bashara, turq* so'zlarida salbiy ottenka yaqqol seziladi. Xuddi shuningdek, *bo'shang, lapashang, noshud, landovur, so'tak* sinonim so'zlari chaqqon (epchil)ning aksi ma'nosi bilan birlashsa-da, bularda *landovur, so'tak* so'zlarida salbiy ottenka kuchlidir.

So'zlarning emotsional-ekspressiv ma'no xususiyati kontekstda reallashadi. Masalan, *ko'pik, nok* so'zlari kontekstda salbiy baho ma'nosini olishi mumkin: *Maqolaning ko'pigi ko'p. Bu nok odam* (chiniqmagan ma'nosida).

Shunday kilib, suz bir predmet yoki xodisaning nomini atashdan tashkari, jirkanish va manmanlik, mensimaslik, masxara, nafrat, gazab, kinoya xamda xurmat, erkalash, kutarinkilik, ulugvorlik singari emotsional-ekspressiv ma'nolarni ham ifodalaydi. Shunga ko'ra so'zlar i j o b i y m a'no ottenkasiga ega

boʻlgan soʻzlar va salbiy maʼno ottenkasiga ega boʻlgan soʻzlar deb ykkiga ajratiladi.

Ijobiy maʼno ottenkasiga ega boʻlgan soʻzlar qatoriga quyidagilar qiradi:

a) erkalash-suyish va xushmuomalalikni bildiruvchi soʻzlar. Bunday soʻzlarning koʻpchiligi erkalash-kichraytirish affikslari yordamida yasaladi: *toychoq*, *qoʻzichoq*, *qizaloq*, *boʻtaloq*, *doʻmboq*, *kenjatoy*, *bolatoy*, *opajon*, *bolagina*, *aylanay*, *oʻrgilay*, *girgit-ton bulay* va hokazo;

b) tantanali, ritorik hamda poetik soʻzlar. Bunday soʻzlar nutqqa dabdabali, koʻtarinki ruh kiritadi. Kuchli ifoda vositasi hisoblangan bunday soʻzlarning koʻpchiligini arxaik soʻzlar tashkil qiladi.

Bu turkumdagi soʻzlarga ogʻzaki ijodiyot—folʻklorda keng qoʻllanuvchi xalq poetik soʻzlarini ham kiritish mumkin. Bunday soʻzlar adabiy tildagi soʻzlardan oʻzining ogʻzaki poetik boʻyogʻi va doston qoʻshiqlariga xos xususiyati bilan ajralib turadi. Masalan: *alp* (pahlavon), *lopchi* (lofchi), *sinchi* (otni yaxshi biluvchi), *alqor* (*togʻ* qoʻyi), *havar* (*toʻgʻri*, tekis yoʻl), *bedov* (chopqir ot), *bedov suvor* (chavandoz), *koʻkalam* (koʻkalamzor), *kelbatli* (qaddi-qomati kelishgan), *halolxoʻr* (*toʻgʻri*, vijdonli).

Salbiy baho ottenkasiga ega boʻlgan soʻzlar qatoriga quyidagilar kiradi:

a) jirkanish va mensimaslikni ifoda qiluvchi soʻzlar: *oyimcha*, *oyimchaxon*, *oyimtilla*, *baloxoʻr*, *pashshaxoʻrda*, *kerilmajon*, *mazaxoʻrak*, *yutoqmoq*, *soʻtak*, *soyaparvar*, *xomkalla*, *oʻlimtik* kabi;

b) qargʻish, soʻkish va haqorat maʼnosini ifoda qiladigan soʻzlar: *zumrasha*, *xumpar*, *tirrancha*, *laʼnati*, *gazanda*, *simyon*, *bachchagʻar*, *oqpadar*, *qizitaloq*, *jinnivachcha*, *juvonmarg*, *goʻrsoʻxta*, *baraka topmagur*, *qoqbosh*, *toʻymagur*, *turqing qursin...*;

v) xalq tilidagi. hazil soʻz va iboralar: *ahmoqqa toʻqmoq* (kishining muskul kuchini oʻlchaydigan asbob), *oyogʻini toʻrtta qilib qoʻymok* (uylantirish maʼnosida);

Emotsional-ekspressiv leksikadan foydalanish matnning umumiy stilistik maqsad va yoʻnalishi bilan bogʻliq. Emotsional xususiyatga ega boʻlgan soʻzlar badiiy-publitsistik asarlarda hamda soʻzlashuv nutqida qoʻllanadi. Biroq dagʻal soʻzlar (vulʻgarizmlar) va haqorat soʻzlardan foydalanishda maʼlum odob chegarasida turish zarur. Qoʻpol, vulʻgar, argo soʻzlarni hatto asarda ishtirok etuvchi shaxslarning nutqiy xarakteristikasini berish maqsadida ishlatish ham naturalizmga olib keladi.

Uzbek tili (koʻpgina boshqa tillarda ham) grammatik strukturasi oʻrganishga bagʻishlangan monografik ishlarda, darslik va qoʻllanmalarda hamda maqolalarda koʻpincha grammatik hodisalarning stilistik xususiyatlari grammatik belgi sifatida talqin qilinadi. Gap frazeologik va erkin birikmalar, soʻz formalarining sinonimiyasi, ular

maʼnosidagi konnotatsiya, ekspressiv-emotsionallik fakt sifatida roʻyxatga kiritiladi. Ayrim oʻrinlardagina baʼzi koʻchma maʼnolar haqida «bu stilistik maqsadda shunday ishlatilgan» tarzidagi gaplarni uchratish mumkin. Stilistik deyilganda, koʻpincha, leksik vositalarning turli xil stilistik xususiyatlari nazarda tutiladi. Fonetik va grammatik stilistika oʻzbek tilshunosligida hali deyarli oʻrganilgan emas.

Grammatik stilistika alohida boʻlim sifatida ajratilishi kerakmi degan masalada umumiy tilshunoslikda turlicha fikrlar uchraydi. Ayrim tilshunoslar umuman grammatik hodisalarni stilistik jihatdan oʻrganishga, boshqa birlari umumiy stilistika ichida grammatik stilistika boʻlimining boʻlishiga qarshi chiqadilar.

Haqiqatda esa grammatik vositalarning juda qatta qismi stilistik boʻyoqqa, tasviriylikka ega. Ammo bu asosiy masala emas. Grammatik sinonimiya stilistik

sinonimiya ichida asosiy halqalardan birini tashkil etadi, Nihoyat, grammatik vositalarda, xususan uning sintaksisga oid qismidagi soʻz birikmalari, gap turlari qoʻllanish sferasi bilan chegaralanganligi xususiyatlarini ham aniqlash mumkin.

Bunday faktlarning koʻpligi grammatik stilistikani umumiy stilistikaning teng huquqli boʻlimi sifatida ajratish lozmligini taqozo qiladi.

Kup holatlarda grammatik formalarning dialektal koʻrinishlari, tarixiy variantlari hamda dubletlar oʻzi uchun tipik boʻlmagan kontekstda turli xil stilistik (emotsional-ekspressiv) boʻyoqqa ega boʻlishi, ifodalilik keltirib chiqarishi mumkin:

«Til tasviriy vositalarining bu differentsial xususiyatlariga turli xil territorial va professional dialektlar, maxsus terminologiya, neologizmlar, argotizmlarning stilistik qoʻllanishi hamda eski adabiy til faktlari, soʻz yasashning eski modellari, soʻz yasovchi va soʻz oʻzgartuvchi variant va dublet formalar, leksik vositalarni toʻgʻri va koʻchma maʼnoda ishlatish, idiomalar, maqollar, masallar qoʻllanishi, leksik, morfologik va sintaktik sinonimlardan, obrazga taqlidiy soʻzlar, undovlardan keng foydalanish va boshqalar kiradi».

Xoʻsh, grammatika toʻgʻri yozish va toʻgʻri gapirishni oʻrgatar ekan, grammatik stilistika nima, u tilning grammatik qurilishini oʻrgatishga qaysi tomondan yondashadi, til faktlarini oʻrganish metodi qanday? Bu masalada oʻzbek tilshunosligida hech narsa deyilmagan. Rus tilshunosligida juda qadimdan stilistikaga, jumladan grammatik stilistikaga grammatikaning bevosita davomi deb qaraganlar.

Umuman, grammatika, leksikologiya va stilistikaning tekshirish obʼekti bitta—til. Bu masala boʻyicha grammatika va grammatik stilistika bir-birlari bilan yanada yaqinlashadi. Ularning har ikkalasi ham tilning grammatik vositalarini oʻrganadi. Ammo grammatika soʻz, forma yoki konstruktsiyaning predmet—logik hamda grammatik maʼnosini oʻrgansa, grammatik stilistika ana shu asosiy maʼno ustiga qurilgan qoʻshimcha ekspressiv, konnotativ maʼnosini yoki uning funktsional xususiyatini oʻrganadi.

Tilning stilistik boʻyoqqa ega boʻlgan vositalari stilistik boʻyoqning xarakteri bilan bogʻliq ravishda ikkiga boʻlib oʻrganilishi mumkin: a) funktsional

stilistik bo'yoqqa ega bo'lgan vositalar; b) ekspressiv-emotsional bo'yoqqa ega bo'lgan vositalar.

Grammatik, xususan morfologik vositalarning funktsional bo'yoq jihatidan ajralib turuvchi xillari to'g'risida so'zlagan edik. Grammatik vositalarning ekspressivlik xususiyati haqida ham xuddi shu tarzda gapirish mumkin. Sub'ektiv baho formalarini hisobga olmaganda alohida olingan biror morfologik formada uning ekspressiv bo'yog'i sezilib turmaydi. Eng avval u, grammatik vositani o'zi uchun tipik bo'lmagan kontekstga ko'chirganda seziladi.

Ikkinchidan, grammatik vositalarning ekspressiv bo'yog'i tilda stilistik normalarning o'zgarishi, umuman til taraqqiyotidagi, uning semantik strukturasidagi o'zgarishlar bilan bog'langandir. Undan tashqari, grammatik formalarining ekspressiv xususiyati ko'p hollarda o'zi qo'shilib kelgan negizning ma'nosi bilan ham bog'langan. Har bir affiksni qabul qilgan so'z shu affiks uchun mikrokontekst rolini bajaradi. Ekspressiv ma'no, ya'ni so'z yoki grammatik formaning **denotativ** ma'nosi ustiga qo'shilgan, yuklangan konnotativ ma'no shu denotativ ma'no bilan mustahkam (ayniqsa grammatik formada) bog'langan.

«So'zda faqat «predmetlik» ma'nosi muhim emas, balki uning keng ma'noda ekspressiv-stilistik ma'nosi ham muhimdir». Shu sababli stilistik tahlil ushbu ikki ma'noning bir-biriga munosabatini doim esda saqlashi lozim.

Grammatik vositalar stilistik xususiyati haqida gapirilganda ularning sinonimik xususiyatidan tashqari, antonimiya, omonimiya hamda shu hodisa ichida qaraladigan omograflar, omoformalar masalasiga ham e'tibor berish kerak.

Xo'sh, sub'ektiv baho nima? U grammatikada qanday ifodalanadi, sub'ektiv baho formalari qaysi so'z turkumlariga xos va u qanday kategoriya?

Sub'ektiv baho, yuqorida eslatganimizdek, so'zlovchining ob'ektiv borliqqa va o'z nutqiga ijobiy yoki salbiy munosabatining ifodalanishidir. Modal munosabat tasdiq, inkor, gumonni ham bildirishi mumkin. Bu maxsus tekshirish ob'ekti.

Ijobiy yoki salbiy munosabat turli xil grammatik formalar (morfologik), ayrim so'zlar (leksik), konstruktsiyalar (sintaktik), forma va so'zning qo'shilishi (leksik-morfologik), intonatsiya (fonetik) yordamida ifodalanadi.

Sub`ektiv bahoning kichraytish, kamsitish, erkalash, ulug`lash, kuchaytirish ma`nolarining turli xil affikslar - morfemalar yordamida ifodalanishi boshqa tillardati kabi o`zbek tilida ham juda keng tarqalgan. *Qizcha, yigitcha, kelinchak, ko`zichok* kabi so`zlardagi *-chok, -cha, -chak* affikslari kichraytish ma`nosini anglatadi, *kizgina, bolagina, ukajon, xolajon, Orziboy, Anortoy, Gulsinbibi, Bibirajab, Rajabxon, Rajabbonu* so`zlaridagi *-gina, -jon, -toy, -boy, -bibbi, -xon, -bonu* tipli affiks va affiksoidlar ko`proq erkalatish ma`nosini keltirib chiqaradi. Demak, sub`ektiv baho formalarini kichraytish va erkalatish ma`nolarini bildiruvchilar deb ikkita katta guruxga bo`lib o`rganish kerak ekan, degan xulosa kelib chiqishi tabiiy. Bu bir jihatdangina to`g`ri, chunki sub`ektiv baho formalari o`z ichida leksik-grammatik qurshov, kontekst, fikr kimga qaratilganligi va nutq qaratilgan shaxsning nutq jarayonida ishtiroki bilan bog`liq ravishda yana turli-tuman ma`no nozikliklarini keltirib chiqarishi, yoki ayrim shakllar, prof. A. G`ulomov aytganidek, ham kichraytish, ham erkalatish ma`nolarini anglatishi mumkin. Qeyingi fikr «Hozirgi o`zbek adabiy tili»da ham bayon qilinadi: «...do`ndiqcha, kelinchak tipidagi so`zlar ham kichraytish, ham erkalash ma`nosini anglatishi mumkin».

Boshqa holatga e`tibor beraylik. Agar suhbat jarayonida ishtirok etayotgan yigitga nisbatan *yigitcha* tarzida murojaat qilinsa, kichraytish bilan birga erkalatish ma`nosi ham bo`lishi mumkin (intonatsiyani o`zgartish bilan kamsitish ottenkasi ham beriladi). Ammo *yigitcha* so`zi. suhbatda ishtirok etmagan kishi to`g`risida borsa, ko`pincha kichraytish ma`nosi birinchi o`ringa chiqadi (bunda ham intonatsiya roli esdan chiqmasligi zarur).

Tilshunoslikda kichraytish va erkalatish affikslari to`g`risida gapirilganda, bunday affikslarni qabul qiluvchi negiz orqali ifodalangan predmetning o`zn leksik-semantik ma`nosiga ko`ra kichik bo`lini qichiklikni anglatishi kerak, degan fikrlar mavjud. A.G`ulomov *-lok* affiksining erkalatish ma`nosi haqida gapirar ekan, uning kichraytish ma`nosidan kelib chiqqanligini ta`kidlaydi.

K. Aksakov fikricha, yoqimli narsalar uchun kichik bo`lish xarakterlidir. Erkalatishning o`zi predmetni kichraytirishni nazarda tutadi. Shuning uchun ham muloyimlik, dilkashlikni ifodalashda, erkalatishda kichpaytish shakllaridan

foydalaniladi. Predmetlarni yoqimli tasavvur qilish, unga nisbatan erkalash munosabatini bildirish uchun ularning oldiga kichraytib ko`rsatuvchi oyna qo`yiladi-yu, natijada u predmetni kichraytib yoqimli tasavvur qilinadi kabi.

Lekin, sub`ektiv baho formalari faqatgina kichraytirish va erkalatish ma`nolarini bildirmaydi, balki bundan ham boshqa turli xil ekspressiv ma`nolarning kelib chiqishida ishtirok etadi. Ya. Grimm shunday yozadi: «Erkalatish formalari faqatgina kam, kichiklik ma`nosini emas, balki iltifot, mehribonlik, erqalatish ma`nolarini ham ifodalaydi.

Sub`ektiv baho formalari qaysi so`z turkumlariga xos? Tilshunoslikda bu haqda bayon qilingan ayrim fikrlarni keltiramiz: «Bu guruxga erkalash, kichraytish, sevishtirish yoki jirkanuv, nafratlanuv, masxaralov kabi murakkab ma`nolarni bildiruvchi, sub`ektiv ma`lum predmet, shaxsga bo`lgan xususiy munosabatini ifoda etuvchi shakllar-suffikslar kiradi.

«Sub`ektiv baho formalari» o`zlarining funktsiyalariga ko`ra yuqorida ko`rib o`tganimiz suffikslardan farq qiladi. Birinchidan, bu suffikslar faqat otlarga qo`shiladi.

«Sub`ektiv baho ifodalovchi affikslar faqat otlarga qo`shilishi, o`zi qo`shilgan so`zning leksik ma`nosini butunlay o`zgartirib yubormasligi kabi xususiyatlari bilan boshqa ot yasovchi affikslardan. farq qiladi».

Keltirilgan gaplarning birinchisi 3.Ma`rufov, ikkinchisi M.Shamsieva qalamiga mansub. Lekin har ikkala maqolada xam ikkitadan anglashilmovchilikka yo`l qo`yilgan. Birinchidan, har ikkala muallif ham sub`ektiv baho formalarini «yasovchi affikslar» deb ataydi. Ikkinchidan, sub`ektiv baho formalari faqat otlarga qo`shiladi, deb yozadilar. Tilshunoslikda sub`ektiv baho formalari otlardan tashqari sifatlarga, ravishlarga ham xos ekanligi to`g`risidagi fikr misollar bilan isbotlangan.

Sub`ektiv baho formalari qaysi so`z turkumiga qo`shilmasin, u doim, so`zlovchining nutk karatilgan predmetga, shaxsga ijobiy yoki salbiy munosabatini kursatadi.

Shuning uchun shoir va yozuvchilar obrazlar xarakteri, xususiyatini ochishda, ularning odatlari, xatti-harakatini, xarakterini baholashda sub`ektiv baho formalariga

tez-tez murojaat qilib turadi. Umuman, sub`ektiv baho formalari ko`proq badiiy nutq, kamroq so`zlashuv nutqi uchun xarakterli tasviriy vositadir. Badiiy adabiyot janrlari jihatidan ko`proq lirik janrda yozilgan poetik asarlarda, publitsistik asarlarda ko`zga tashlanadi. Boshqa janrdagi asarlarda baho formalari nisbatan kam (bu boshqa janr asarlari tilida sub`ektiv baho formalari ishlatilmaydi degan gap emas. Masalan, dramatik va prozaik asarlarda, dialogik nutqda ham tez-tez sub`ektiv baho formalariga murojaat qilinadi) ishlatiladi. Rasmiy ish qog`ozlari, yuridik hujjatlar, ilmiy stilda (shu bilan birga gazeta tilida ham) sub`ektiv baho formalariga yanada qamroq murojaat qilinadi.

Sub`ektiv baho formalarining hamma ko`rinishi ham, asosan og`zaki nutq uchun xos bo`lgan hodisalardir. Badiiy asar tilida tez-tez uchrab turuvchi bunday formalarni ham og`zaki so`zlashuv nutqi uchun xos bo`lgan holatlar deb qarash ma`qul.

Sub`ektiv baho ma`nosining yuqorida ko`rsatilgan vositasi, analitik formani hisobga olmaganda, hozirgi zamon o`zbek tili uchun mahsuldor emas. Uzbek tilida sub`ektiv baho ma`nosini, asosan morfologik usul bilan, ya`ni so`z negizlariga turli xil morfemalar (sub`ektiv baho ma`nosini keltirib chiqaruvchi) qo`shib hosil qilinadi. Yuqorida ko`rsatilgan vositalar va sub`ektiv baho ma`nolarining yana boshqa ayrim vositalar bilan ifodalanishi ayrim-ayrim kuzatishni, ular haqida tegishli xulosalarga kelishni talab qiladi.

So`zning uslubiy bo'yog'i

O'zbek tili leksikasida so'zlar emotsional-ekspressiv jihatdan ikki qatlamga ajratiladi:

1. Emotsional-ekspressiv jihatdan betaraf so'zlar. Bunday so'zlarning semantik tarkibida faqat denotativ ma'no (atash, nomlash semalari) mavjud bo'ladi: *yuz*, *oriq*, *ozg'in*, *jilmaymoq* kabi.

2. Emotsional-ekspressiv jihatdan bo'yoqdor so'zlar. Bunday so'zlarning semantik tarkibida denotativ ma'no (atash, nomlash semalari) Emotsional-ekspressiv jihatdan betaraf so'zlar. Bunday so'zlarning semantik tarkibida) bilan birga uslubiy bo'yoqdor (ifoda semalari, konnotativ semalar) ham mavjud bo'ladi: *turq* (denotativ

ma'no+uslubiy bo'yoq), *dirdov* (denotativ ma'no+uslubiy bo'yoq), *qiltiriq, ipiltiriq* (denotativ ma'no+uslubiy bo'yoq), *irshaymoq* (denotativ ma'no+uslubiy bo'yoq) kabi.

Yaxshi va yomon, g'azab va nafrat kabi so'zlarda uslubiy bo'yoq bordek tuyuladi, aslida esa ularda uslubiy bo'yoq yo'q, bu so'zlar belgi yoki voqelikni atash (nomlash) bilan cheklanadi, shunga ko'ra emotsional-ekspressiv jihatdan bo'yoqdor so'zlar sanalmaydi.

Emotsional-ekspressiv bo'yoqdor so'zlarning nutqda qo'llanilishi. Uslubiy bo'yog'I bor bo'lgan so'zlardan nutqda his-tuyg'ularni, so'zlovchining voqelikka nisbatan salbiy yoki ijobiy munosabatini ifodalash maqsadida foydalaniladi. Masalan: *Mamlakat bizlarga ishnsin! Biz **shalvirab** ishni xurjun qilaylik!...(Uyg'.) Tursang-chi, muncha **shalpayasan!** (H.Sh.)* Bu misollarda bo'shashmoq leksemasi o'rnida shalviramoq va shalpaymoq so'zlari qo'llangan va shu so'zlarning mazmun planidagi uslubiy bo'yoqlar ("kinoya", "mazax", "kesatiq" semalari) hisobiga nutqda ekspressivlik ta'minlangan.

Nutqda ekspressivlikning ifodalanishi quyidagi usullarga tayanadi:

1. **Leksik usul.** Bunda uslubiy bo'yog'I bor bo'lgan so'zlar nutqqa kiritiladi.

2. **Kontekstual usul.** Bunda uslubiy bo'yog'I bor bo'lgan so'z ma'lum kontekst yoki nutqiy muhit ta'sirida uslubiy bo'yoqdor so'zga almashtiriladi.

3. **Affiksatsiya usuli.** Bunda betaraf ma'noli so'zlarga subyektiv baho ifodalovchi affiksalar morfemalar qo'shiladi.

4. **Fonetik usul.** Bunda so'z tarkibidagi undoshlardan biri qavatlantiriladi (geminatsiya), unlilar cho'ziladi, urg'uning o'rnini o'zgartiriladi, shular hisobiga ekspressivlik ta'minlanadi. Misollar: *Ishqilib, Zamira bechora uyatga chidayolmay ketib qolgan. **Yashshamagurlar...** (P.Q.) Akam bechora go'shangada ko'rib, **xayro-o-o-n** bo'lib qolganlar.* (Mirm.)

5. **So'zni metaforik qo'llash usuli.** Bunda ko'p ma'noli so'zning metaforaga asoslangan majoziy (hosila) ma'nosidan uslubiy figura sifatida foydalaniladi. Masalan: *Muhtaram qayin otamizga! Siz bilan meni qorong'i zindonlarga tushirib, dor ostlarigacha tortgan... Homid ismli bir to'ng'izni, nihoyat ikki yillik sargardonlik so'ngida, yordamchilari bilan tuproqqa qorishtirishga muvaffaq bo'ldim.* (A.Qod.) Bu

gapda to'ng'iz so'zi ko'chma ma'noda Homidga nisbatan qo'llangan, shu bilan Otabekning bu shaxsga nisbatan salbiy his-tuyg'usi, nafrati ifodalangan. Yana: *Mamajon lochin yigit, Serharakat, betinim. (Q.M.)* Bu gapda lochin so'zi o'z ma'nosida emas, ko'chma ma'noda – yigitning epchilligini, chaqqon va jasurligini baholash maqsadida qo'llangan.